

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

ABDIG‘ANIYEVA SITORABONU MURODULLA QIZI

**O‘ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI BOZORINI DAVLAT
TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

ixtisoslik: 08.00.13 – “Menejment”

**Ilmiy rahbar:
i.f.d.prof. Yo‘ldoshev N.Q.**

Toshkent-2023

Mundarija.

1-bob. Qurilish materiallari bozorini tartibga solishning nazariy – uslubiy asoslari

1.1. Menejmentning tartibga solish funksiyasi mazmuni.....	11
1.2. Bozorni tartibga solish usullari.....	22
1.3. O‘zbekiston qurilish materiallari bozorini tartibga solishda davlat boshqaruvining o‘rni.....	26
1-bob bo‘yicha qisqacha xulosa.....	35

2-bob. O‘zbekiston qurilish materiallari bozori tahlili

2.1. O‘zbekistonning qurilish materiallari ishlab chiqarish salohiyati.....	36
2.2. Qurilish materiallari bozorining rivojlanishi.....	43
2.3. O‘zbekiston qurilish materiallari bozorida importning o‘rni.....	57
2-bob bo‘yicha qisqacha xulosa.....	65

3 – bob. O‘zbekiston qurilish materiallari bozorini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish

3.1. Import o‘rnini bosuvchi qurilish materiallari ishlab chiqarishda maxalliy xom –ashyolardan oqilona foydalanish.....	66
3.2. Qurilish materiallari ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.....	71
3.3. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash.....	86
3-bob bo‘yicha qisqacha xulosa.....	107
Xulosa va takliflar.....	108
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	113

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Hozirgi davrda butun dunyo bo'yicha qurilish iqtisodiyotning yirik tarmog'i hisoblanadi. Qurilish sanoati samaradorligini oshirish imkoniyati ko'p jihatdan qurilish materiallari sanoatining rivojlanishiga bog'liq. Umuman olganda, sanoat korxonalarini qamrab olish binolar, inshootlarni qurish, ularni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun ishlatiladigan materiallarni qazib olish va ishlab chiqarish bilan bog'liq.¹ Jahonda ekologik «yashil» qurilish materiallari bozori hajmi 2022-yil oxiriga qadar 209,632 milliard AQSH dollarini tashkil etgan va bu davrida o'rtacha yillik o'sish sur'ati 9,73 foizga yetgan².

2020-yilda va 2021-yilning birinchi yarmida KOVID-19 pandemiyasi avjida hukumat tomonidan kiritilgan ta'qiqalar va cheklovlar global qurilish sektoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va shu bilan barqaror qurilish materiallari bozorining o'sishini chekladi, shu asnoda turar-joy mulki eng katta zarar ko'rdi, chunki yirik shaharlardagi qattiq cheklov choralari uylarni ro'yxatga olishning to'xtatilishiga va ipoteka to'lovlarining sekinlashishiga olib keldi. Ushbu cheklovlar olib tashlanganidan keyin sektor yaxshi tiklanmoqda, masalan: uy-joy sotuvining ko'payishi, yangi loyihalarning ishga tushirilishi va yangi ofislar va savdo maydonlariga talabning ortishi so'nggi ikki yil ichida bozorning tiklanishiga olib keldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ham qurilish majmuasi, jumladan, qurilish materiallari sanoati muhim o'rin tutadi. Uning holati mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Qurilish materiallari sanoati butun mintaqa iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarmoqlardan biridir. Ayniqsa, uy-joy qurilishi ko'p jihatdan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish holatiga bog'liq, chunki qurilish-montaj ishlari qiymati tarkibida qurilish materiallarining o'rtacha ulushi 60 foizdan

¹ Состав промышленности строительных материалов, ее место в строительном комплексе и национальной экономике. Статья. (дата обращения: 03.04.2016).

² <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/green-building-materials-market>

ortiq. Bu shuni ko'rsatadiki, uy-joy narxi ko'p jihatdan qurilish materiallari narxiga bog'liq. O'zbekistonda qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish ularning tovar bozorlaridagi talabini, tabiiy-iqlim sharoitlarini o'rganishni, mavjud xom ashyo bazasidan optimal foydalanishni hisobga olgan holda iqtisodiy jihatdan asoslanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 01-fevraldagi PF-60-sonli «2020-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-sonli «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi PF-5392-sonli «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-sonli «Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-sonli «Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qurilish materiallari bozorini tartibga solishda davlat boshqaruvini ahamiyati va qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartiblashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlar prof. Robert A.Taylor, dr. Emili Jonson, prof. David Smit, dr Laura Martinez, dr. Maria Rodrigez, prof. Michael Harris, prof Bruton H.J. lar tomonidan olib borilgan.

MDH davlatlarida qurilish materiallari bozorini rivojlantirish muammolari mualliflar tomonidan o'rganilgan Stepanov I.S., Rudnov V.S., Mashkin N.A., Ignatova O.A., Kiyatkina Ye.P., Fedorova S.V., Goroshkova A.V., Bondarenko A.A., Begzade G.Sh., Abdulloyev U. X., Dikamova A., Xalzova N. A., Nikolayev V.P., Zaytseva K.N., Animitsa Ye.G. kabi mualliflar tomonidan o'rganilgan.

Mahalliy qurilish sanoatini davlat tomonidan tartibga solish usullari borasida olimlarimiz tadqiqotlar olib borishgan G'ulomov A.A., Qosimov E., Qosimov I., Nurimbetov R.I., Metyakubov A.D., Toshmuxeamedova K.S. Matrizayeva D. Yu., Kurbaniyazov Sh.K., Djumaniyazov U.I., Abdullayev A.A kabi olimlarimiz tadqiqotlar olib borishgan.³

Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlarini tahlil etish qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarli o'rganilmaganligini ko'rsatdi. Ushbu muammoning dolzarbligi va yetarlicha ishlab chiqilmaganligi tadqiqot mavzusini tanlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi hamda uning maqsadi va vazifalarini belgilab berdi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining «O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishni ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari hamda uslubiyatlarini takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Qurilish materiallari bozorini shakllantirish va rivojlantirish tendensiyalarini o'rganish, milliy qurilish materiallari bozoriga xos

³ Qosimov E., Qurilish ashyolari: Oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun darslik. — T.: «Mehnat», 2004-y.; Qosimov I. Arzon zamonaviy qurilish ashyolari. Darslik. Toshkent arxitektura qurilish instituti. — T.: Cho'lpon nomidagi NMIU. 2017.; Metyakubov A.D.

qulaylashtiruvchi va cheklovchi omillarni aniqlash va uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llarini aniqlash;

O‘zbekiston qurilish materiallari bozorini tartibga solishda davlat boshqaruvining o‘rni ustuvor ekanligini ilmiy asoslash;

mamlakatda qurilish materiallari bozorini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash;

O‘zbekistonning qurilish materiallari ishlab chiqarish salohiyatini baholash; qurilish materiallari ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ko‘rsatkichlarini asoslash;

bozorni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari asosida qurilish materiallari tayyorlash tizimini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari olingan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasi qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga doir tashkiliy - iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning nazariy va empirik usullaridan keng foydalanilgan. Xususan, rasmiy-mantiqiy, operatsiyalarni tadqiq etish, boshqaruv masalalarini yechish, sabab-oqibat bog‘lanishlarni aniqlash usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida beriladigan bank kreditlari summasining 50 foizigacha miqdorida kafillik hamda mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga qimmat import qilinuvchi xom ashyoni sotib olishda imtiyozlar berish taklifi asoslangan;

qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qurilish mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda pozitsiyalash hamda qurilish materiallari bozorini barqarorlashtirish orqali takomillashtirishga doir taklif berilgan;

mamlakatga 5 turdagi energiya tejamkor va ekologik (yashil) qurilish materiallari va xom ashyolarni import qilishda nol bojxona stavkasini qo'llash asosida qurilish materiallari bozorida ekologik xom ashyolardan foydalanishni kengaytirish taklifi asoslangan;

«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi korxonalari iqtisodiy faoliyati asosiy tendensiyalarining ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mahalliy qurilish materiallari bozoridagi tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy imtiyozlar orqali qo'llab quvvatlash va import hajmiga ta'sir etuvchi omillarni baholash to'g'risidagi taklif ishlab chiqilgan;

Qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston qurilish materiallari bozorining SWOT tahlili asosida qurilish tarmog'idagi tarkibiy islohotlar va muammolari amaliy jihatdan ishlab chiqilgan;

«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi iqtisodiy ko'rsatkichlarini optimallashtirishning ko'p omilli ekonometrik modeli tavsiya etilgan.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining tahlili jarayonida O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning «O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini bosqichma-bosqich oshirish imkonini beradi, qurilish materiallari importini mahalliy bozorlarimizdan siqib chiqarish imkonini yaratadi.

Dissertatsiya tadqiqotida erishilgan natijalar, ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyanomalardan qurilish materiallari bozori talablarini hisobga olgan holda qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish asosida milliy qurilish materiallari bozorlarini shakllantirishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan «Menejment» «Marketing», «Strategik menejment», «Marketing tadqiqotlari», «Ishlab chiqarish menejmenti» kabi fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari tayyorlashda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida beriladigan bank kreditlari summasining 50 foizigacha miqdorida kafillik hamda mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga qimmat import qilinuvchi xom ashyoni sotib olishda imtiyozlar berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6244-sonli «Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori doirasida 14 turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha tadbirkorlarga berilgan imtiyozga binoan oxirgi yillarda ishlab chiqarish hajmi 23 foizga oshdi. Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 12 114,5 milliard so'mni tashkil etgan, 2021-yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlari xajmi 85,7 foizga oshgan. (2023-yil 8-maydagi 05/15-1009-sonli ma'lumotnoma).

Qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qurilish mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda pozitsiyalash hamda qurilish materiallari bozorini barqarorlashtirish

orqali takomillashtirish taklifi asosida mamlakatda qurilish materiallari ichki bozor hajmi o'rtacha 1 foizga, tashqi bozor aylanmasi o'rtacha 0,75 foizga oshib, qurilish materiallari mahalliy bozori sezilarli darajada barqarorlashgan. (2023-yil 8-maydagi 05/15-1009-sonli ma'lumotnoma).

Mamlakatga 5 turdagi energiya tejamkor va ekologik (yashil) qurilish materiallari va xom ashyolarni import qilishda nol bojxona stavkasini qo'llash asosida qurilish materiallari bozorida ekologik xom ashyolardan foydalanishni kengaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi PF-51-son «2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonining 3-ilovasida o'z aksini topgan. Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 5 turdagi energiya tejamkor qurilish materiallari va xom ashyolarga 2023-yil 1-maydan boshlab tegishli bojxona imtiyozlari berish orqali qurilish materiallari bozorida ekologik xom ashyolardan foydalanishni kengaytirishga erishilgan va mahalliy qurilish materiallari bozori jahon standartlariga mos ekologik qurilish materiallari bilan to'yingan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2023-yil 22-iyundagi 21/05-23-0014-sonli ma'lumotnomasi).

«O'zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi korxonalari iqtisodiy faoliyati asosiy tendensiyalarining ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan hamda qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish natijasida vujudga keluvchi istiqboldagi asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan. (2023-yil 8-maydagi 05/15-1009 sonli ma'lumotnoma).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, shu jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ma'ruza shaklida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan OAK e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, shuningdek ilmiy-amaliy

konferensiyalarda 5 ta ma'ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 119 betdan iborat.

1-bob. Qurilish materiallari bozorini tartibga solishning nazariy – uslubiy asoslari

1.1. Menejmentning tartibga solish funksiyasi mazmuni

Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlarini tatqiq etish asosida aniqlangan muammolar, ularning salbiy natijalarini oldini olish zarurati tartibga solishni taqozo etadi.

Menejmentda tartibga solish funksiyasi me'yorlardan har qanday og'ishlarni bartaraf etish va shunday tizim faoliyatiga erishishga mo'ljallangan. Bunda boshqaruv tizimi holatining ma'lum bir qiymatdan, me'yorlardan, muvozanatlardan har qanday og'ishlarni oldini olish nazarda tutiladi.

Nazorat asosida aniqlangan ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati jarayonidagi muammolar, shuningdek, uning salbiy natijalari tartibga solish orqali bartaraf etiladi.

Tartibga solish - Urinish boshqariladigan tizimga xos bo'lgan kamchiliklar, disfunktsiyalar va nomukammalliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan boshqaruv tashkilotiga tegishli. Bunga amaldagi boshqaruv tizimi tomonidan tashkil etilgan tegishli tadbirlarni shakllantirish va amalga oshirish orqali erishiladi. Iqtisodchi olim N.Q.Yo'ldoshev fikriga ko'ra, "Boshqaruv insonlar bilan birga paydo bo'lgan. U mehnatning taqsimlanishi va kooperatsiyalanish jarayonida faoliyatning mustaqil turiga ajralgan. Bu odamlarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish zarurligi bilan asoslangan."⁴

Taniqli iqtisodchi olimlarimizdan M.Sharifxo'jayev va Yo.Abdullayevning ta'limotlari bo'yicha, "tartibga solish muvofiqlashtirishning davomi bo'lib, u sodir bo'lib turadigan og'ishlarni bartaraf qilish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Uning yordami bilan vujudga kelishi ehtimol tutilgan og'ishlarning oldi olinadi."⁵

⁴ Yo'ldoshev, N.K. Menejment [Matn]: darslik / N.K. Yoldoshev, G.E. Zaxidov. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. - 5 b.

⁵ Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment: Darslik. – Toshkent, O'qituvchi. 2001-y. 78 b.

Iqtisodchi olim A.G.Porshnev va boshqalar “Menejmentdagi tartibga solish - bu belgilangan parametrlardan chetga chiqqanda tizimda barqarorlik holatiga erishiladigan boshqaruv obyektiga ta’sir qilishdir.” – deb o‘z fikrini bildirganlar.⁶

Tartibga solish nazorat jarayonida aniqlangan barcha kamchiliklarni, o‘zgarishlarni, nosozliklarni bartaraf etishga mo‘ljallangan.

Ryabsev, A. Yu. fikriga ko‘ra «tartibga solish - bu og‘ishlarni bartaraf etish orqali tizimning xususiyatlarini ma’lum bir trayektoriya bo‘yicha saqlash jarayonidir».⁷

Tartibga solish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1) o‘zgaruvchilarning haqiqiy holatining talab qilinganidan og‘ishlarini tekislash (zaxiralarni o‘z vaqtida to‘ldirish, jihozlarni ta’mirlash);

2) kompensatsion xususiyatga ega bo‘lgan tizimni kerakli holatdan chiqaradigan omilni (materiallarni o‘z vaqtida olishni ta’minlamaydigan yetkazib beruvchiga nisbatan qonuniy jazo choralarini) bartaraf etish orqali;

3) tizimni buzilishlardan ajratish orqali.

Shu bilan birga, tartibga solish choralari menejment texnologiyasining barcha oldingi bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin. Buning uchun korreksiyalash xarakterlariga asoslangan quyidagi qarorlarni tanlash zarur:

- chetlanishlarni bartaraf etish;

- standartlar va mezonlarni qayta ko‘rib chiqish;

- standartlar va og‘ishlarni ko‘rib chiqish bilan o‘zgarishlarni bartaraf etish.

V.R. Vesenin esa “Tartibga solishning vazifasi tashkilot maqsadlariga o‘z vaqtida samarali erishishni ta’minlash uchun rejalashtirilgan maqsadlarni, me’yorlarni, standartlarni yangilashdir.”- deb ta’rif bergan.⁸

⁶ Управление организацией: Учебник. / Под ред. А. Г. Поршнева, З. П. Румянцевой, Н. Саломатина. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2002. - 32 с.

⁷ Рябсев, А. Ю. Менеджмент: экономические аспекты управления [Текст] : учеб. пособие / А. Ю. Рябсев, Т. Б. Загоруля ; М-во образования и науки Рос. Федератсии, Урал. гос. экон. ун-т. — Екатеринбург : [Изд-во Урал. гос. экон. ун-та], 2017. — 38 с..

Muammoning mazmuniga va nazoratga olish yo`nalishiga ta'sirini yaratish usuliga qarab, tartibga solishning ikki qo`lini misol qilib olishimiz mumkin:

- reaktiv – belgilangan standartlarga erishish ko`rsatkichi past bo`lganda joriy etiladi. Standartlardan chetlanishlarni yumshatishga qaratilgan;
- proaktiv – muammo potensial imkoniyat sifatida qaraladi. Ish faoliyatini yaxshilash yoki imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishga qaratilgan.⁹

Qosimov G'.M. "Menejment" darsligida "So'zsiz, xar bir mamlakat xukumatining muayyan bosqichida o'zining xususiy maqsadlari bo'ladi va ularni yechishda mamlakatdagi va dunyo xo'jaligidagi iqtisodiy xolatni hisobga oladi. Shundan kelib chiqib davlatning tartibga solish faoliyati maqsadlari va yo`nalishlari o`zgaruvchan bo`lishiga qaramay, ushbu funksiyaning mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilgan, vaholanki, xar bir mamlakatning, alohida olib qaralganda o'ziga xos xususiyati bor."- deb ta'kidlagan.¹⁰

G'ulomov S.S. "Moddiy va moliyaviy resurslarni tartibga solish xam muvofiqlashtirish vazifasiga kiradi" – deb o'z fikrlarini bildirgan.¹¹

Boshqarish nazariyasi nuqtayi nazaridan tartibga solish, bir tomondan, boshqaruv obyektining belgilangan ish parametrlaridan og'ishlarini aniqlashga, boshqa tomondan esa, ta'sirga asoslangan qayta aloqa nazorati usuli sifatida qaraladi.


Shaxslar tartibga solish mexanizmining ajralmas qismidir. Shunday qilib, tartibga solish rahbar va unga bo'ysunuvchilar o'rtasidagi samarali muloqot jarayonini o'zida mujassam etadi. Normativ nazoratni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv salohiyatidan kelib chiqqan holda, ular mavjud vaziyatlarni xolis baholashni amalga oshirishlari va shu bilan bunday tartibga solish sub'ektining xatti-harakatlarini modulyatsiya qilish uchun mos keladigan aniq metodologiyalarni shakllantirishlari zarur.

⁹ Управление организаций: Учебник. / Под ред. А. Г. Поршнева, З. П. Румянцевой, Н. Саломатина. - 2-й изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2002. - 198 с.

¹⁰ Qosimov G'.M. Menejment: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: O'zbekiston, 2002. 256 b.

¹¹ G'ulomov S.S. Menejment asoslari: Iqtisodiyot yo`nalishidagi Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – "Sharq", 2002, 117 – b.

Shundan kelib chiqib, biz tartibga solishni nazoratning yakuniy bosqichida tashkilot faoliyatini moslashtirishni ta'minlash usuli sifatida ko'rib chiqishimiz kerak. Tartibga solish jarayonining grafik modeli 1.1. -rasmida ko'rsatilgan.



1.1-rasm. Tashkilotning tartibga solish modeli¹²


Tartibga solish doirasida ta'sir doirasi harakatga turtki bo'luvchi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ishonirish kanallarini (hujjatlar, standartlar va hokazolar orqali namoyon bo'ladi) o'z ichiga olgan shaxsiy ta'sir doirasidan tashqariga chiqadi. Binobarin, tartibga solish harakatlarning asosini tashkil etuvchi modda rag'batlantiruvchi elementlarni o'z ichiga olishi kerak.

Boshqariladigan quyi tizimda nazorat qilish jarayonida aniqlangan og'ishlar va kamchiliklarning tabiatiga qarab, tartibga solish muayyan blokga (rejalashtirish, tashkil etish yoki motivatsiya) yo'naltirilishi mumkin. Agar "rejalashtirish" blokida kamchiliklar aniqlansa, u holda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar takomillashtirish bilan bog'liq bo'ladi. (1.2. -rasm)

Boshqariladigan quyi tizim xodimlarini rag'batlantirishdagi kamchiliklar "motivatsiya" blokida bartaraf etiladi, masalan, rag'batlantirish tizimini takomillashtirishda.

Maqsadlardan natijalarning kichik og'ishlari aniqlanadi.

¹² Muallif ishlanmasi



1.2- rasm. Tartibga solish va uning vazifalari¹³

Tartibga solish odatda uch jihatdan ko'rib chiqiladi:

joriy holatni saqlash. Bu nazorat natijalari standartlarga mos bo'lgan hollarda mumkin bo'ladi va nazorat natijalariga reaksiyani tashkil qilish uchun eng ko'p ishlatiladigan status kvo (holat-kvo)ni saqlash;

nazorat obyekt faoliyatining o'zgarishi. Ushbu xarakteristikaning asosiy mazmuni amaldagi standartlar va belgilangan ko'rsatkichlar bilan boshqariladigan parametrlarga muvofiq amalga oshirishga qisqartiriladi. Shu bilan birga, bunday og'ishlarga sabab bo'lgan omillar tahlil qilinadi va yo'q qilinadi.

Masalan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha topshiriqlarning bajarilmaganligi sabablari, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish sabablari aniqlanib, bartaraf etiladi;

etalon transformatsiyasi, ya'ni standartlarning o'zini va nazorat natijalariga asoslangan ko'rsatkichlarni o'zgartirish.

Ishlab chiqarish faoliyatini tartibga solish quyidagi talablarga javob berishi kerak:

¹³ Muallif ishlanmasi

ishlab chiqarishni operativ rejalashtirishning aniq tashkil etilishiga tayanish, uning bevosita davomi;

ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va monitoring qilishning uzluksizligini ta'minlash;

rahbariyat ko'rsatmalarining majburiy tez va aniq bajarilishini ta'minlash;

aniq mas'uliyat va ishlab chiqarishni operativ boshqarishning uzluksizligiga asoslanishi.

Tartibga solishni asosiy boshqaruv korxonasi sifatida e'tirof etish uning muhimligini ta'kidlab, tartibga solish vazifasi o'rniga nazorat ostidagi sub'ektga muqobil funktsiyalarni berish imkoniyatini istisno qiladi. Nazorat qiluvchi va boshqariladigan ob'ekt o'rtasidagi bog'liqlik faqat tartibga solish funktsiyasini bajarish orqali namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, tartibga solishning tipologiyalarini va ularning boshqaruv jarayoni doirasidagi funktsional ahamiyatini tushunish katta ahamiyatga ega.

Tartibga solish funktsiyasi boshqaruv jarayonlarining ob'ektiv asoslari doirasida o'z asosini topadi. Kundalik asosda, tashkiliy boshqaruvning pragmatik sohasida ko'p sonli xilma-xil tartibga solish metodologiyalari qo'llaniladi, ularning barchasi boshqaruv nazorati ostidagi sub'ektlarning xatti-harakatlarini boshqarishga yo'naltirilgan. Shunday qilib, tartibga solish funktsiyasi boshqaruvning, boshqaruvning va ierarxik tuzilmaning majburiy namoyon bo'lishini o'z ichiga oladi, bu esa tashkiliy boshqaruv tizimiga uzluksiz singib ketgan.

Rahbarlik shaxsning turli guruhlar va shaxslarga ta'sir o'tkazish, ularning xulq-atvori, o'zaro munosabatlari va majburiyatlarini o'zgartirish, bularning barchasi aniq natijalarga erishish qobiliyatini qamrab oladi.

Bo'ysunish ma'muriyatga tegishli bo'lgan ajralmas yurisdiksiyani o'zida mujassam etadi va shu bilan ma'muriy mexanizmga etakchi rolni egallagan shaxsning resurslarini nazorat qilish huquqini bildiradi. Rahbarning bo'ysunuvchilarga ierarxik bog'liqligi bo'ysunishning mohiyatini tavsiflaydi.

Shu nuqtai nazardan, tartibga solish sub'ektning xatti-harakatlari dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillarni tuzatish yoki moslashtirish maqsadida sub'ektga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan protsessual manevr sifatida turadi.

Tartibga solish funktsiyasini sinchkovlik bilan bajarish natijasi sifatida tashkilot tizimdagi noaniqliklarning barcha turlarini yumshatish qobiliyatiga ega bo'ladi va shu bilan bir qator turli xil ta'sirlarga qarshi "dinamik muvozanat" holatini qo'llab-quvvatlaydi.

Aynan shu sababga ko'ra nazorat qilish o'z oldiga barcha qismlar o'rtasidagi aniq proporsionallikni belgilas, nazorat qilinuvchilar orasidagi belgilab qo'yilgan standartlardan chiqish jarayonlarini o'z vaqtida aniqlash va samarali stabillikni aniqlashdan iborat.

Tartiblashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

-Stabillashtiruvchi usul.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy richag sifatida barqarorlashtiruvchi usul tan olinadi va monitoring qiladi. Barqarorlashtiruvchi tartibga solish korxonaning tashqi muhit subyektlari bilan munosabatlarini, shuningdek, uning turli qismlari o'rtasidagi ichki munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Tartibga solish ta'siri sifatida korxon va uning qismlari faoliyati tartibini belgilaydigan qoidalar, shuningdek korxon ushbu faoliyat davomida rioya qilishi kerak bo'lgan chegaralar va nisbatlarni belgilaydigan cheklovlar tizimi qo'llaniladi.

Ushbu qonun hujjatlariga lavozim yo'riqnomalari, farmonlar, qarorlar va belgilangan standartlar kiradi. Nazorat qilish bu qonun-qoidalarga so'zsiz bo'sunishni talab etadi.

“Tartibga solishni barqarorlashtirish jarayonining asosiy maqsadi belgilangan tashkiliy va ijtimoiy standartlarni, bir ma'noli xulq-atvor ko'rsatmalarini va korporativ tashkilot ichidagi xodimlar tomonidan ko'rsatiladigan xatti-harakatlar va faoliyat bilan bog'liq chegaralangan chegaralarni o'rnatishdan iborat.

Ushbu maqsadga amalga oshirish majburiy bo'lgan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish va ularga rioya etilishini nazorat qilish orqali erishiladi.”¹⁴

Adminstrativ nazorat

Adminstrativ nazorat - Bu tashkilot rahbari tomonidan obektlarga ta'sir etish jarayonini yaqqol namoyon etadigan va rahbarning boshqaruv usulini ko'rsatadigan muhim zanjir sifatida ko'riladi.

Adminstrativ monitoringdan asosiy maqsad - subyektning xohish-irodasini aks ettiradigan boshqaruvchiga bevosita korxonaning ichki va tashqi muhitidan kelib chiqadigan qonun-qoidalar jamlanmasini ishlab chiqish.

Korxonaning faoliyatini tartibga solish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan normativ-huquqiy tartibga solish zarur.

Hukumat monitoringni balanslashtirish maqsadida mavjud va muhim bo'lgan elementlar oraqali amalga oshiriladi.

1. mavjud bo'lgan ichki va tashqi muhit orqali keladigan muammolarni operativ bartaraf etish va qabul qilingan qoidalarni korxonaning atmosferasiga moslashish.

2. Korxonaning o'ziga xos rivojlanishi va uning bir holatdan keyingi bosqichga o'tishi: tashqi muhitdagi o'zgarishlarni, yangi imkoniyatlarni rivojlantirishni, maqsadlar doirasini qayta tiklashni va yangi maqsadlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Dinamik muvozanatni saqlashga yordam berish asosan ma'muriy tartibga solish bilan ta'minlanadi.

Intizomiy tartibga solish.

Tashkiliy tuzilmaning ushbu varianti delegatsiya jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Intizomiy tartibga solishning mohiyatini javobgarlikni belgilash mexanizmi orqali tushunish mumkin. Vakolat berish akti mas'uliyatni faqat rahbar va delegat o'rtasida qayta taqsimlashi yaxshi tushuniladi. Rahbar o'z majburiyatlari va

¹⁴ Веснин, В.Р. Основы менеджмента: Учебник / В.Р. Веснин. – М.: Проспект, 2016. - 89 с..

huquqlarini o'zgartirish huquqiga ega, shu bilan birga bo'ysunuvchiga javobgarlikni yuklaydi. Biroq, bir vaqtning o'zida menejer to'liq javobgarlikni saqlab qoladi. Demak, intizomiy tartibga solishning asosiy maqsadi bo'ysunuvchilarning mustaqil boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun berilgan huquqlardan foydalanish imkoniyatini berish maqsadida ularning vakolatlari va innovatsion kuchlarini tarbiyalashdan iborat.

Intizomiy tartibga solish rahbarning quyidagi huquqlariga misol bo'ladi:

- a) bo'ysunuvchilarga topshirilgan muhim masalalar bo'yicha aniq natijalarni so'rash;
- b) topshiriqlarning bajarilishi bo'yicha davriy hisobotlarni olish;
- c) faqat favqulodda zarurat holatlarida ruxsat beruvchi ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilishni talab qilish;
- d) Ko'rsatmalar va buyruqlarga sinchkovlik bilan rioya qilishni, duch kelgan har qanday qiyinchiliklar haqida darhol xabar berishni ta'minlash.

Bu zarurat mehnat qoidalariga, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishni tartibga soluvchi me'yorlarga, texnologik protokollarga, mashina va asbob-uskunalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarga, xavfsizlik bayonnomalariga, shuningdek, turli xil maxsus ko'rsatmalarga rioya qilish zaruratidan kelib chiqadi. Shunday qilib, tartibga solish funktsiyasi doirasida quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Kollektiv ong tuzilishini tartibga soluvchi bo'lib xizmat qiladigan, huquq va majburiyatlar kabi jihatlarni o'z ichiga olgan holda, ularning ta'sirchanligi asosan individual ijtimoiy normalardan kelib chiqadi va bir vaqtning o'zida normativ bo'lmagan tarkibiy qismlarning sezilarli ta'sirini o'z ichiga oladi.

Belgilangan tartibga solish toifalari birgalikdagi korxonalarining bir vaqtda barqarorligini va izchil rivojlanishini kafolatlash uchun ajralmas hisoblanadi.

Tartibga solish funktsiyasini amalga oshirishning samaradorligini faqat ushbu jarayonning asosi bo'lgan tamoyillarga qat'iy rioya qilish orqali ta'minlash mumkin.

Siz ma'muriy boshqaruv metodologiyalaridan foydalangan holda tartibga solish funktsiyasini bajarishingiz mumkin.

Tartibga solish funksiyasini tartibga soluvchi bir nechta qoidalar mavjud.

Direktiv qoida nazorat qilinadigan ob'ekt doirasida tartibga soluvchi harakatlarning metodologiyasi va amalga oshirilishini belgilaydi. Bu qarorlarning majburiy va o'z vaqtida bajarilishini talab qiluvchi tartibga solishning eng qat'iy shaklidir. U korxonada sodir bo'layotgan jarayonlarni tartibga solishning faol rejimini o'zida mujassam etgan, aniq qaror qabul qiluvchilarni harakatga undaydi.

Ushbu tamoyilning asosiy talabi - bu ikki tomonlama ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan me'yoriy choralarning o'z vaqtida bajarilishi:

Birinchidan, tartibga soluvchi ta'sirning tezkor namoyishi, yuzaga kelgan vaziyatga mos keladigan yechimni shakllantirishga olib keladi.

Ikkinchidan, qarorning bajarilishini bildiruvchi tartibga soluvchi ta'sirga nazorat qilinadigan sub'ektning o'z vaqtida javob berishi. Direktiv printsip, shuningdek, tartibga solish choralari belgilangan muddatda tegishli tarzda amalga oshirilmagan yoki etarli darajada bajarilmagan hollarda, sanksiyalarni qo'llashning muqarrarligini talab qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish tamoyili xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini tartibga soluvchi belgilangan protokollarga muvofiqligini aks ettiradi. Bu ma'muriy mexanizmlar orqali inson faoliyatiga (shu jumladan boshqaruv rollariga) bilvosita tartibga soluvchi ta'sirga yondashuvni tashkil etadi.

Masalan, mehnat yo'riqnomalari muayyan mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlarini tartibga solib, ularning faoliyat sohasi ustidan intizomiy nazoratni amalga oshiradi. Bu tamoyil korxonada sodir bo'layotgan jarayonlarning chegaralarni belgilash (xulq-atvor bo'yicha ko'rsatmalar berish) orqali namoyon bo'ladi.

Ushbu tamoyilning muhim xususiyati belgilangan qoidalarga majburiy rioya qilishdir. Ushbu belgilangan me'yorlarning buzilishi korxonada sodir bo'layotgan jarayonlarning tashkil etilishiga putur etkazadi va tegishli jazo choralarni qo'llashga sabab bo'ladi.

Mo'tadillik printsipi. "Me'yor" tushunchasi korxonaning alohida elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni belgilaydi. Normativ tartibga solish printsipiga rioya

qilish inson faoliyati sodir bo'ladigan aniq chegaralarni belgilashga qaratilgan. Bu jarayon barqarorligiga hissa qo'shadi, uning rivojlanishi odamlarning umumiy operatsion sharoitlarga majburiy rioya qilishiga bog'liq.

Normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilishning asosiy tamoyili protseduralarni amalga oshirishni tartibga soluvchi murakkab asosni belgilaydigan asosiy katalizator bo'lib xizmat qiladi. U murakkab me'yorlar tarmog'i ichida bir-biri bilan chambarchas bog'langan tashkiliy, protsessual, texnologik, moliyaviy va ijtimoiy standartlarning keng qamrovli majmuasidan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Boshqariladigan tizimda nazorat qilish jarayonida aniqlangan to'siqlar yoki kamchiliklarning xususiyatiga qarab, tartibga solish muayyan blokga (rejalashtirish, tashkil etish yoki motivatsiya) yo'naltirilishi mumkin.

Qiyinchiliklar tashkiliy tuzilma doirasida amalga oshirilsa, zarur choralar tashkilotning boshqaruv konfiguratsiyasi, aloqa matritsalarini va shunga o'xshash elementlarning ob'ektivi orqali qabul qilingan "Tashkil etish" segmentida joylashtirishni talab qiladi;

boshqariladigan tizim xodimlarini moddiy rag'batlantirish borasidagi kamchiliklarni "Motivatsiya" blokida bartaraf etish, mukofot tizimini takomillashtirish, dividend siyosati va shu kabilarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

Korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi ko'p jihatdan ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olishga qaratilgan tartibga solish choralarining samaradorligiga bog'liq. Nazorat jarayonida kamchiliklarni, og'ishlarni, nosozliklarni aniqlash korxonada faoliyatini barqarorlashtirish uchun zarur, ammo yetarli bo'lmaydi. Ularni bartaraf etish bo'yicha samarali choralar ishlab chiqmasdan va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilmasdan, tashkilotdagi vaziyatni yaxshilash mumkin emas.

"Samarali tartibga solish uchun menejer to'g'ri qaror qabul qilishi juda muhimdir, ya'ni standartlardan aniqlangan og'ishlar qanchalik maqbul yoki nisbatan xavfsiz ekanligini hal qilish zarurligidir. Nazorat funksiyasi me'yoriy harakatlarni boshlash to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan og'ishlar haqida ma'lumot beradi. Ushbu bosqich tartibga solish jarayonida eng muhim

hisoblanadi. Shuning uchun ruxsat etilgan og‘ishlar ko‘lamini aniqlash tartibga solish jarayoni uchun eng muhim masaladir. Agar og‘ishlar ko‘lami juda katta bo‘lsa, unda yuzaga keladigan muammolar tahdid solishi mumkin. Ammo, agar o‘lchov juda kichik bo‘lsa, korxonaga kichik og‘ishlarga javob beradi, bu juda qimmat va ko‘p vaqt talab etadi. Barcha holatlarda taqsimlovchi nazoratning nuqtasi og‘ish sabablarini tushunish va jarayon parametrlarini kerakli harakat yo‘nalishiga qaytarishga erishish uchun boshqarish funksiyasi ma’lumotlaridan foydalanishdir.”¹⁵

Korxonaning doimiy dinamikligi tizimning o‘zi harakati va atrof-muhitning bezovta qiluvchi ta’siri natijasida yuzaga keladigan vaziyatning doimiy o‘zgarishi bilan bog‘liq.¹⁶

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt istiqbolli boshqaruvni yo‘lga qo‘yish uchun menejmentning barcha funksiyalaridan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish zarur.

1.2. Bozorni tartibga solish usullari

Bozorni tartibga solish - bozor jarayonlariga maqsadli ta’sir ko‘rsatish, bu orqali tartibga soluvchi subyekt muayyan vazifalarni hal qiladi.

Bozorni tartibga solish zaruratini davlatning besh iqtisodiy vazifasidan kelib chiqadi:

1. Jamiyatning xavfsizligini ta’minlash (mudofaa, ekologik, iqtisodiy, genetik kabilar).
2. Moddiy boyliklar va daromadlarning qayta taqsimlanishi yo‘li bilan aholini ijtimoiy himoyalash.
3. Davlat byudjetining daromadi va xarajati yordamida davlat sektori orqali iqtisodiyotga ta’sir etish.

¹⁵ Веснин, В.Р. Основы менеджмента: Учебник / В.Р. Веснин. – М.: Проспект, 2016. - 89 с..

¹⁶ Веснин, В.Р. Основы менеджмента: Учебник / В.Р. Веснин. – М.: Проспект, 2016. - 89 с...

4. Vaqti-vaqti bilan iqtisodiyotning samarali faoliyatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar o'tkazish kerakligi. Bu ayniqsa monopoliyaga qarshi va raqobatni qo'llashga qaratilib, iqtisodiy tizimni yaxshilovchi islohot mazmuniga ega bo'ladi.

5. Iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish va tartibga solish.¹⁷

Ayniqsa, tegishli huquqiy hujjatlar va ixtisoslashgan idoralar orqali amalga oshiriladigan mehnat bozorining davlat yo'nalishi alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tadbirkorlik sub'ektlarining bozor ta'sirini o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish va muomala vositalari egalarining tovarlar va valyutaning o'zaro ta'siriga ta'sirini bildiradi..¹⁸

Bozorni tartibga solish usullari alohida ahamiyatga ega, shuning uchun ularning xususiyatlariga batafsilroq to'xtalib o'tish kerak.

Bozorni tartiblashtirishda qo'l keladigan bir qancha usullari bo'lib, ularning qo'llanilishidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rib chiqaylik.

Adminstrativ-qonuniy usullar. Bu bozor o'zaro ta'siri dinamikasini nazorat qilish uchun mo'ljallangan ochiq, majburiy aralashuvlarni o'z ichiga oladi. Bunday metodologiyalar nisbatan sodda xarakterga ega. Ularning qo'llanilishi faqat davlat organlari bilan chegaralanib qolmaydi; balki ular turli korxonalar va tashkilotlarning boshqaruv amaliyotida, shuningdek, ularning mulkdorlarining o'zlari tomonidan qo'llaniladi.

Muqarrar ravishda bu yuqoridan pastga ta'sir korxonalar va muassasalarda o'xshash boshqaruv usullarini keltirib chiqaradi. Ko'rinib turibdiki, davlatga yo'naltirilgan bozor sohasi ma'muriy va huquqiy vositalar bilan sezilarli darajada hamohangdir. Biroq, ko'plab mamlakatlarning xususiy sektorida yanada qattiqroq choralar qo'llaniladi. Bu o'ta mas'uliyat yuklash, yuqori turuvchi organlar va shaxslarning farmoyishlariga so'zsiz rioya qilish, korxonalar tartib-qoidalariga so'zsiz rioya etish, davriy hisobotlarni majburiy taqdim etish, qat'iy nazorat va qiyoslash

¹⁷ Rasulov M.R. Bozor iqtisodiyoti asoslari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik // So'z boshi: S.S.G'ulomov. T.: "O'zbekiston" 340-b.

¹⁸ Кас И. система управления экономикой: план и рынок // проблемы теории и практики управления. 2008. №2. 59 с.

mumkin bo'lgan vakolatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bunday choralar ko'pincha xususiy mulkdorlar va ularning rahbarlari tomonidan suiste'mol qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, ma'muriy usullar qo'llaniladigan iqtisodiy muhit juda keng. Bular avvaldan bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda xo'jaliklarning ajratib bo'lmaydigan qismlariga aylanib ketgan va ishlab chiqarish samadorligini xamda aholi farovonligining o'sishiga xalaqit bermaydi.¹⁹

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga oid bir qancha qonunlar yaratilgan bo'lib, ular bu jarayonni me'yoriy xolatda amalga oshishida o'z o'rinlarini topmoqda. Masalan, e'tiborlisi Konstitutsiyamizda asosiy iqtisodiy tizim munosabatlari, deb tan olingan Konstitutsiyaning 53-moddasida "Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi. Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari.hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas."²⁰- deyiladi.

Kuchlanish usullari. Kuchlanish usullar bozor munosabatlarini tartibga solishning sof majburlash usullarini o'z ichiga olishi kerak, ular ham keng, tarixiy, miqyosda qabul qilinishi kerak.²¹

Amalda bu usullar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi.

Birinchiidan, bu davlatning huquqiy faoliyati. Jahon tarixida bozorning ko'p yoki kamroq barqaror ishlashiga haqiqatan ham hissa qo'shadigan ko'plab huquqiy normalar mavjud. XIX-asr oxirida Kanada va AQSHda monopoliyalarning

¹⁹ Rasulov M.R. Bozor iqtisodiyoti asoslari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik// So'z boshi: S.S.G'ulomov. T.: "O'zbekiston" 346-b.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston". 1992, 18-19 betlar.

²¹ Петраков Н.Я., Видяпин В.И., Журавлева Г.П. Экономические системы: кибернетическая природа развития, рыночные методы управления. 2008. 106 – с..

shakllanishiga qarshi monopoliyaga qarshi qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlarni buzganlik uchun katta miqdorda jarima va qamoq jazosi belgilandi. Shunga o'xshash huquqiy qoidalar keyinchalik Avstriya va Yangi Zelandiyada kuchga kirdi.

Aslida, bu monopoliyalarning paydo bo'lishi va hukmronligini to'xtata olmadi, lekin shunga qaramay, bozor raqobatini saqlashga yordam berdi. Tartibga solish, shu jumladan xalqaro savdoni tartibga solish bo'yicha eng yirik huquqiy hujjat 1957-yilda G'arbiy Yevropaning oltita yetakchi davlatlari tomonidan imzolangan Rim shartnomasi bo'ldi. U umumiy bozor deb ham ataladigan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining shakllanishi va faoliyatiga asos soldi.

Ikkinchidan, bu bozorni tartibga solish bo'yicha keng qamrovli dasturlar. J.K.Marshallning urushdan keyingi Yevropaga yordam ko'rsatish rejasi, 15 dan ortiq Yevropa mamlakatlarini o'z ichiga olgan Yevropa Iqtisodiy Jamiyatining shakllanishi bu faoliyatga misol bo'la oladi.

Uchinchidan, bu alohida iqtisodiy choralar bo'lib, ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- pul-kredit islohotlari (masalan, 1990-yillardan boshlab deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida yagona valyuta – avval YECU, keyin esa Yevro);

- narxlarga ta'siri (Rivojlangan davlatlarda 10% dan -20% gacha yoqilg`I narxlari hukumat tomonidan monitoring qilinadi)

davlat xaridlari (90-yillarning oxiriga kelib eng yirik kapitalistik mamlakatlarda davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotning deyarli yarmiga yetdi. Xaridlar asosan qurol-yarog' va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

- erkin iqtisodiy zonalarni yaratish (Shunday qilib, AQSHda 80-yillarning o'rtalarida bojxona to'lovlari kamaytirilgan (yoki bekor qilingan) 130 ga yaqin tashqi savdo zonalari mavjud bo'lgan va eksport-import nazorati amalda bo'lmagan. Xuddi shu Mamlakatda xalqaro bank operatsiyalari Amerika hududidan amalga oshiriladigan erkin, bank zonasi mavjud.

- raqobatni davlat tomonidan rag'batlantirish (monopoliyaga qarshi qonunlar, soliq yukini kamaytirish shaklida)

- ijtimoiy siyosat (rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda davlat mehnatga haq to'lash jarayoniga ancha faol aralashadi. Ko'pincha u quyidagi vositalardan foydalanadi: eng kam ish haqini belgilash, uni muzlatish, indeksatsiya qilish, ish haqining mehnat unumdorligi darajasiga bog'liqligini ta'minlash, ishsizlik nafaqalari, tadbirkorlik ish o'rinlarini kafolatlash zonalarini yaratish).

1.3. O'zbekiston qurilish materiallari bozorini tartibga solishda davlat boshqaruvining o'рни

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni liberallashtirish siyosati qurilish materiallari bozorini shakllantirishning bozor tamoyillarini joriy etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ularni davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solishning turli shakllari davlat tomonidan qo'llaniladi. Jamiyat va shaxsiy manfaatlarni uyg'unlashtirish, jamoa va shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi sinergiyani rivojlantirish uchun qurilish materiallari bozorini nazorat qilishda hukumat aralashuvi zarur bo'ladi. Bu prognozlash, strategik rejalashtirish, byudjetni taqsimlash, moliyaviy islohotlar, iqtisodiy rejalashtirish aktiv va passiv mablag'larni o'z ichiga olgan zaruriy iqtisodiy choralarni qo'llashni nazarda tutadi. Keyingi yillarda O'zbekiston respublikasida qurilish ishlari ko'lami sezilarli darajada oshdi. Bularning barchasini real vaqt rejimida hamma joyda kuzatyapmiz: turar-joy majmualari va magistral yo'llar, sanoat gigantlari va ijtimoiy ob'ektlar – hamma erda ishlar qizg'in davom etmoqda, O'zbekistonni ko'z o'ngimizda yanada zamonaviy va rivojlangan davlatga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF - 5577 – sonli farmonida qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish, investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qurilish tarmog'i

kadrlarini professional tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.²²

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, qurilish sanoati yirik odimlar bilan rivojlana boshladi. Mahsulotning sifati yaxshilandi, uning turdari ko'paydi va yangi texnologik usullar ishga tushirildi, to'la mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan texnologik tizimlar joriy etildi va ishga tushirildi. "Iqtisodiy islohotlar o'tkazilayotgan bozor sharoitida xo'jalik yuritish, qurilish ashyolarini ishlab chiqarish negizini tubdan isloh qilishni va qurilish tizimida xom ashyolar ta'minotini birgalikda qayta tashkil qilishni talab qiladi. Mamlakatimizda mavjud bo'lgan kapital qurilishni rivojlantirish qurilish ashyolarini ishlab chiqarish majmuini qaytadan o'rganib boshqarish, tashkil etish va mablag' bilan ta'minlash asoslariga o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi."²³

Qurilish sohasiga mamlakat yalpi ichki mahsulotida alohida yuqori ulushga ega bo'lgan sektor sifatida qaraladi. Bu tarmoqning rivojlanishi yangi turdagi obyektlarni barpo etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, shuningdek mavjud standartlar asosida ularni monitoring va sifat nazoratidan o'tkazish kabi muhim iqtisodiy-tashkiliy vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Qurilish sektorining asosiy funksiyasidan bir bu davlatning iqtisodiy landshaftini boyitishga oid chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va unga amal qilish jarayonida qulay muhitni ta'minlab berishdan iborat.

Qurilish landshafti tarkibiga kiruvchi bo'laklar quyidagilardan iborat:

Qurilish faoliyati amalga oshadigan platforma (turar-joy ob'ektlari, tijorat ko'chmas mulklari va sanoat ob'ektlarini o'z ichiga oladi).

Qurilish materiallari bozori.

Qayta ta'mirlash va rekonstruksiya qilish xizmatlari amalga oshiriladigan bozor.

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-5577-sonli Farmoni

²³ Qosimov E., Qurilish ashyolari: Oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun darslik. — T.: "Mehnat", 2004, —4 b.

Qurilish materiallari va tovarlari qurilish bozori evolyutsiyasiga va uning rivojlanishining kinetikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ta'mirlash va qurilish xizmatlari sohasi qurilish materiallari sohasiga yaqin joylashgan. Ushbu sektorning barqaror kengayishini ta'minlash uchun har tomonlama bozor tadqiqotlari bilan shug'ullanish, talab dinamikasini aniqlash, rekvizitlarni baholash, imkoniyatlarni o'rganish va bozordagi turli manfaatdor tomonlarni aniqlash zarur.

Yurtimiz olimlaridan E. Qosimovning fikriga ko'ra "Qurilish ashyolari ishlab chiqarish sanoatining eng muhim vazifalari bu — mahalliy xom ashyolardan keng foydalanish, buyum ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularning sifatini ortirish va qurilishning tannarxini kamaytirish, shuningdek, eskirib qolgan mashina-uskunalarni zamonaviy texnologiyalarga almashtirishdir."²⁴

Yurtimiz iqtisodiy islohotlar davrini boshdan kechirayotgani fonida qurilish sohasi va qurilish materiallari ishlab bozori rivojlanishiga xizmat qiluvchi barcha zaruriy chora-tadbirlar qo'llanilmoqda. Zamonaviy qurilish yangi va samarali qurilish materiallarini tez o'zlashtirishga yordam beradigan keng ilg'or ilmiy va texnologik asos bilan ajralib turadi. Bu esa mehnat sharoitlarini sezilarli darajada osonlashtiradi va yaxshilaydi, uning xarajatlarini kamaytiradi va mahsulot tannarxini pasaytiradi. Assortiment qanchalik keng bo'lsa, qurilish materiallarining sifati va narxi qanchalik past bo'lsa, qurilish qanchalik muvaffaqiyatli bo'ladi.

Tadbirkorlarimiz asosiy qurilish materiallari – metall, g'isht, sement, beton ishlab chiqarishni kengaytirish va sifatini oshirish muhim vazifalardan ekanligini isbotlab, qurilish materiallarini yanada ko'paytirish uchun xarakat qilyaptilar.

Mutaxassislar V.S.Rudnov, Ye.V.Vladimirova, I.K.Domanskaya, Ye.S. Gerasimovanning fikriga ko'ra, qurilish materiallari xar qanday qurilishning ajralmas va juda muhim tarkibiy qismidir. Agar siz uzoq o'tmishga nazar tashlasangiz va qadimgi odam uchun qanday materiallardan uy qurish mumkinligini tasavvur qilishga xarakat qilsangiz, uning tanlovi juda oddiy ekanligi ayon bo'ladi: toshlar,

²⁴ Qosimov E., Qurilish ashyolari: Oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun darslik. — T.: "Mehnat", 2004, —3 b.

loy, yog‘och, o‘ldirilgan xayvonlarning terilari ekan.²⁵ Maqsadiga ko‘ra zamonaviy qurilish materiallari quyidagilarga bo‘linadi:

1.1.-jadval

Qurilish materiallarining turlari²⁶

Konstruksion	<ul style="list-style-type: none"> - tabiiy tosh materiallari; - sun'iy tosh materiallari (beton, oxak, keramik, shisha); - metallar (po‘lat, quyma temir, alyuminiy va qotishmalar); - plastmassa; - yog‘och materiallari; - kompozit materiallari.
Mahsus yo‘naltirilgan	<ul style="list-style-type: none"> - birikuvchi moddalar; - issiqlik izolyatsiyasi; - akustik; - gidroizolyatsiya; - pol va yo‘l uchun materiallar; - yong‘inga chidamli; - radiatsiyadan ximoya qilish uchun

Qurilish materiallarining turlari xaqida aytadigan bo‘lsak, misol uchun pardoqlash va montaj ishlarini bajarishda quruq qurilish aralashmalaridan foydalanish mehnat sifati va unumdorligini sezilarli darajada yaxshilaydi, tayyor mahsulotning yuqori ishlash xususiyatlarini ta‘minlaydi.²⁷

Ilg‘or xorijiy davlat olimlari yaratayotgan yangi zamonaviy qurilish ashyolari, xom ashyolarini innovatsion texnologiyalar asosida qfyta ishlab, jumladan maydalab, tuyib, kuydirib, qorishtirib, qoliplab, zichlab ularning yangi noyob turlarini qo‘llamoqdalar.²⁸

²⁵ Строительные материалы и изделия : учеб. пособие / В.С. Руднов [и др.] ; под общ. ред. доц., канд. техн. наук И.К. Доманской.— Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2018. с – 3..

²⁶ Строительные материалы. Краткий курс : учеб. пособие // Н. А. Машкин, О. А. Игнатова; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – 2-йе изд., перераб. – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2012. – С -11..

²⁷ Горошкова А.В. Сухие строительные сме с модифицирующей добавкой на основе торфа. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук. ФГБОУ ВО “ТГАСУ” Томск – 2015. С 3

²⁸ Qosimov I. Arzon zamonaviy qurilish ashyolari. Darslik. Toshkent arxitektura qurilish instituti. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU., 2017. 7 – b.

V.P. Nikolayevning ta'kidlashicha, qurilishdagi xaqiqiy jarayonlar barcha bosqichlarda - qurilishni tugatishdan oldin, davomida va keyin kapitalning almashtiriladigan egalari o'rtasidagi raqobatdir.²⁹ Qurilish bozori esa ochiq tashkiliy-iqtisodiy tizim xisoblanadi.³⁰

Qurilishda aniqlash va optimallashtirish oson bo'lmagan ko'plab nozik masalalar mavjud - bu pudratchilar bilan ishlash va bozorning rivojlanishiga deyarli ta'sir qilmaydigan, lekin uning faol ishtirokchisi bo'lgan ko'plab tijorat vositachilari va bevosita buyurtmalar va individual qurilish va boshqa ko'plab omillarni oson baholash mumkin emas. Qurilish o'zining barcha "bo'limlarida" har qanday davlat iqtisodiyotining holati va rivojlanish darajasini bevosita aks ettiradi. Ushbu sohasi madaniyat va millatning iqtisodiy o'sishga intilishini tavsiflaydi.³¹


Ilmiy jihatdan ko'radigan bo'lsak, biz uchun bozor sohasidagi vakolatli shaxslar: Teodor Levitt, "Global bozorlarning tashkil etilishi" (1983) kitobi bilan tanilgan, 1990 yilda rus tiliga tarjima qilingan. Filipp Kotlarning "Marketing asoslari" kitobi marketologlarning o'ziga xos "mayoq"iga aylandi, Igor Anyooff xorijiy marketologlar tomonidan tez-tez tilga olinadigan "Korporativ strategiya" muallifi, Maykl Porter raqobatchi kuchlarni tahlil qilish bo'yicha mutaxassis bo'lib, uning "Xalqaro raqobat" asari 1993-yilda tarjima qilinganidan keyin boshqa ko'plab mahalliy iqtisodchilarga taqdim etilgan. Marketingning o'ziga xosligi misoli sifatida, marketingning umumiy nazariyasini o'rganish yetarli bo'lishi mumkin, ammo qurilish marketingi nuqtai -nazaridan sanoat fani sifatida xaddan tashqari umumlashtirish va xaddan tashqari abstraksiyadan aziyat chekish mumkin.

Ish sifati darajasi, arxitektura, texnologik echimlar qurilish mahsulotlarini real ishlashdagi mahsulot sifatida tavsiflaydi. (1.3-rasm)

²⁹ Николайев В.П. Введение в рыночную экономику строительства // Экономика строительства. – 1994. – № 4. – С.3-12..

³⁰ Й.П.Кияткина, С.В.Федорова "Экономика строительства" Учебное пособие. Самара: Самарский государственный архитектурно-строительный университет, 2011. С -71.

³¹ <https://xreferat.com/53/3769-1-ocenka-rynka-stroitel-nyh-uslug.html>



1.3-rasm. Marketing tizimida qurilish mahsulotlari turlari ³²

Xaridorning muammolarini kredit mablag'lari bilan ta'minlash, kreditlarni kafolatlar bilan ta'minlash, texnik jihozlar kafolatlarini qo'llash, lizing, qurilish ashyolari va materiallarini yetkazib berish yo'llarini takomillashtirishda ko'rish mumkin.

Ommaviy ishlab chiqarish va seriyali mahsulotlar sohasidan ajralib turadigan, tovarlangan obektlar sifatida qurilish mahsulotlari sifatining sezilarli nomutanosibli bozorning nozik tomonlarini ajratish uchun muqobil yondashuvni talab qiladi.

Ushbu ssenariyda korxonalar o'rtasidagi raqobat nafaqat qurilish, loyihash jarayonlarida, tayyor obektlar standartlarida ham yaqqol namayon bo'ladi. Raqobatdosh kafolatlar, konsalting, iqtisodiy tizim va iste'molchi ehtiyojini qondiradigan takliflarni berish ham muvaffaqiyatni kafolatlaydi.

Shunday ekan, tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatini tatibga solish, soliq solish, tegishli qonun xujjatlari orqali narx belglash, xo'jalik yurituvchi subyektlarda davlat ulushini ta'minlash orqali amalga oshiriladi degan fikrni yoritishimiz zarur.

“Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari vakolatlari doirasida tabiiy gaz, elektr energiyasi, shuningdek yoqilg'i-moylash materiallari kabi jamlangan resurslardan foydalanishni boshqarish vakolati Investitsiyalar, sanoat va savdo

³² <https://xreferat.com/53/3769-1-ocenka-rynka-stroitel-nyh-uslug.html>

vazirligi zimmasiga yuklatilgan.”³³ Ushbu vakolat ushbu iste'mol darajalarini aniqlash va cheklash uchun chegaralarni belgilash orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston qurilish materiallari bozorlarida raqobatni tartibga solish “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.³⁴

Mamlakatimizda barcha ishlab chiqarish-texnik maqsadlar va iste'mol tovarlari, shuningdek, qurilish materiallari uchun erkin shartnoma narxlari qo‘llanilmoqda. Ushbu subyektlar tomonidan erkin narxlarning oshishi yoki kamayishi bozor konyunkturasi, talab va taklifning o‘zgarishi munosabati bilan ularning xohishiga ko‘ra amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23-may 2019-yildagi PQ-4335-sonli “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida Respublikamizda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha barqaror o‘sish suratlarini ta‘minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o‘zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda qurilish materiallari bozorlari narxlarni tartibga solish tegishli tovar bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ma‘lum darajada monopol yuqori yoki monopol past narxlarning o‘rnatilishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-sonli qarorida xam “2024-yil 1-yanvarga qadar Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan mahalliy eksport qiluvchi korxonalarga (ularning vakolatli vakillariga) qurilish materiallarini barcha mamlakatlarga, shu jumladan chegaradosh davlatlarga avtomobil, temir yo‘l va havo transportida tashish xarajatlarining 50 foizigacha

³³ “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 27.12.1996-yildagi 355 – I- son.

³⁴ “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 27.12.1996-yildagi 355 – I- son.

miqdorini kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etiladi.”³⁵ - deb maqsad quyilgan.

Eksport salohiyatini oshirish va eksportga yo‘naltirilgan qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan monopol mahsulotlarni respublikadan tashqarida sotish e‘lon qilinganidan farq qilishi mumkin bo‘lgan shartnomaviy (erkin) narxlarda amalga oshiriladi. Ba‘zi bir hollarda davlat o‘z qarori bilan ayrim turdagi mahsulotlarga narxlarni qo‘shimcha tartibga solishni joriy qilishi mumkin. Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlar qurilishi tannarxining oshishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi 305-son qarori bilan 20% miqdorida qo‘llaniladigan qurilish obyektlariga mahsulot yetkazib berishda vositachilarning marjalar miqdorini qisqartirish uchun cheklov joriy etildi. Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlar qurilishi tannarxining oshishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi 305-son qarori bilan yetkazib berishda vositachilar sonini qisqartirish maqsadida qo‘llaniladigan narxga 20 foizli limit joriy etildi. Narxlarni tartibga solishning mavjud usullari narxlarning asossiz o‘shishining oldini olishda kerakli samarani bermaydi, chunki ular qimmat narx mexanizmiga qurilgandir.

Shuningdek, monopolist korxonalar tomonidan narxlarning "asossiz" o‘shishining oldini olish ustidan davlat nazorati amaliyoti ko‘pincha uzoq vaqt davomida sotish narxlarini (ulgurji narxlarni) oshirmaydigan ishlab chiqaruvchilarning top-menejerlari tomonidan jiddiy suiste‘molliklarga olib keladi.

Narx dinamikasi ishlab chiqarish faoliyati bilan o‘zaro aloqada emas va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidan sezilarli ravishda farq qiladi. Narxlarning o‘shishiga korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ayrim hollarda esa narxlarni deklaratsiyalash korxonaning rentabelligining pastligiga, ayrim hollarda esa norentabellikka olib keladi.

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21-fevral 2022-yildagi PQ-139-sonli “Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-sonli “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirishning zamonaviy bozor usullarini joriy etish, xususiy korxonalariga yuqori avtonomiyalar berish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish bo‘yicha tashabbuslar ilgari surildi. Shu bilan birga, qurilish sohasida mavjud sharoitlarni o‘rganish ushbu sohada islohotlarni tez amalga oshirishga va kuchli raqobat muhitini shakllantirishga to‘sqinlik qiladigan muammolar mavjudligini ta’kidlaydi.³⁶

Davlat jamiyat manfaatlarining vakili va himoyachisi sifatida tarmoq xususiyatlarini, uning alohida tarmoqlarida xo‘jalik yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiyotning institutsional tuzilishini tartibga solishga chaqiriladi.

14 turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirayotgan O‘zbekiston tadbirkorlari kompensatsiya va kafolatlar olishlari yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda noruda metallarning o‘rganilgan konlarining aksariyati o‘zlashtirilmaganligi sababli qurilish materiallariga bo‘lgan talab asosan import hisobidan qoplanadi.

Shuningdek, qurilish sur‘atlarini qisman davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hisobiga oshiriladi. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti mamlakatning barcha huddularida umumiy moliyalashtirish xajmi 1,1 mlrd. dollar bo‘lgan uy-joy qurilishining keng qo‘lamli dasturini o‘tgan yilning mart oyida e‘lon qildi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining sifati pastligi, seysmik, ekologik, yong‘in xavfsizligi va boshqa standartlarga mos kelmaslik muammolari mavjud. Shuningdek, ichki bozorda sohta qurilish materiallarini sotish muammosi xam yo‘q emas.

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-sonli “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

O'rganilayotgan noruda materiallar konlarining aksariyati respublika hududlarida o'zlashtirilmaganligi sababli bozor qurilish materiallariga bo'lgan talabni ko'proq miqdorda import hisobidan qoplashga majbur. Qurilish korxonalarida asosiy e'tibor mahsulot sifatini nazorat qilishga qaratilishi kerak, bu esa qurilish natijalarining kalibrini ta'minlash uchun laboratoriyalarda kimyoviy tahlillar, tajribalar va shunga o'xshash tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi. Ushbu tadqiqot ishlari va tahliliy jarayonlar tovar ishlab chiqarish xarajatlariga muqarrar ta'sir ko'rsatadi, natijada qurilish ob'ektlarini bozorda tijoratlashtirishni tezlashtiradi va shu bilan birga mahalliy qurilishdan kelib chiqadigan shubhali sifatdagi qurilish materiallarini sotishdan himoya qiladi. sektor.

O'zbekistonda qurilish materiallari bozorini rivojlantirish va muammolarini bartaraf etish uchun menejmentni takomillashtirish, iste'molchilar talabidan kelib chiqqan holda innovatsiyalardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish qurilish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarining birlamchi maqsadi bo'lishi zarur.

1-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Birinchi bobda xorijiy va mamlakatimiz olimlarining menejmentning tartibga solish funksiyasi mazmuni, mohiyatini ochib beruvchi fikrlari, ilmiy ta'riflari umumlashtirilgan va mualliflik xulosalari chiqarilgan. Tartibga solish funksiyasini turlari va bosqichlari aniqlangan, tamoyillari asoslangan.

Erkin bozorni tartibga solishda davlat faol ishtirok etishi lozim, chunki unga qator vazifalar yuklatiladi:

1. jamiyatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
2. moddiy boyliklar va daromadlarni qayta taqsimlash orqali aholini ijtimoiy himoyalash;
3. davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini nazorat qilish orqali iqtisodiyot sohasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash;
4. barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

Davlatning ana shu vazifalaridan kelib chiqib O'zbekistonda qurilish materiallari bozorini tartibga solish yo'nalishlari ishlab chiqildi va ushbu masalaga

qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar maxkamasining qarorlari tizimlashtirilib, tegishli xulosalar chiqarildi.

2-bob. O‘zbekiston qurilish materiallari bozori tahlili

2.1. O‘zbekistonning qurilish materiallari ishlab chiqarish salohiyati

Xozirgi davrda mamlakatimizning real sektori bo‘lgan qurilish tarmog‘i bazasining muhim qismi qurilish materialari sanoati hisoblanadi. Qurilish materiallarini sanoat ishlab chiqarishi o‘z ichiga olgan maxalliy iqtisodiyotning qayta ishlash tarmog‘i strategik ahamiyatga ega masaladir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda shahar va qishloqlarda bunyodkorlik ishlari jadal olib borilmoqda. Qurilish materiallari, buyumlari va qurilish uchun moddiy asosdir. Ayni paytda energiya tejoyvchi, import o‘rnini bosuvchi, innovasion va yangi turdagi qurilish materiallariga talab yildan-yilga ortib bormoqda. Xozirgi kunda qurilish sohasida 1,5 millionga yaqin quruvchilar faoliyat yuritmoqda. Qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 43,3 mingtaga yetdi. Qurilish korxonalari sonining 56,9 % inshootlar va binolar qurilishiga, 9,9 % esa fukorolik oyektlari qurilishga tegishli bo‘lib, 33,2% ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini bajarmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi 12,5 mingdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularning turlari soni esa 180 dan oshgan. “Shuningdek, 24 ta tuman (shahar) qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.”³⁷ 2022-yilga kelib yuqori sifatli qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha 667 ta xalqaro standart qabul qilingan.

Yirik qurilish korxonalari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari xajmi 12114,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bu esa 2022-yil 2021-yilga taqqoslaganda qurilish ishlarining o‘sish sur‘ati 85,7 % yetganini va ularning umumiy xajmdagi ulushi 4,5 % ga kamayib, 24,9 % tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin.

³⁷ <https://www.gazeta.uz/ru/2021/06/15/building-materials/>

Xususan, qurilish materiallariga nafaqat ichki, balki jahon bozorida ham talab ortib bormoqda. Ichki talabning yuqoriligi tufayli mamlakatimizda keyingi yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshdi. Bundan tashqari, qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, mahsulot turini ko'paytirish maqsadida bu boradagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qurilish sektorida qurilish materiallari bozorining talab va taklif ko'rsatkichlarini nazorat qilish asosida biznes strategiyasi ishlab chiqish va ushbu dasturni korxonalar kelgusidagi faoliyatini belgilashda ustuvor ko'rsatma qilib olinishi zarur. Bu talabni qisqartirish, yangi mahsulot toifalarini qamrab olish, shiddatli raqobat sharoitida sifatni oshirish va xarajatlarni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'p qirrali sa'y-harakatlar rivojlanish, amalga oshirish va barqaror o'zgarishlarni osonlashtirishga intiladi.

Quyidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish amalga oshiriladi:

1. O'zbekiston Respublikasining qurilish materiallarining asosiy turlariga bo'lgan ehtiyoji iste'molchilar toifalari va hududlar kesimida; Hududlar kesimida qurilish materiallarining asosiy turlarini ishlab chiqarish;

2. Qurilish materiallari turlari va ularni yuklash bo'yicha mavjud quvvatlar;

3. Qurilish materiallarini eksport qilish (hajmi, mamlakati, narxi);

4. Qurilish materiallari importi (hajmi, mamlakati, narxi);

5. Qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun xomashyo, butlovchi buyumlarni narxi, hajmi, mamlakati ko'rsatilgan holda olib kirish;

6. Kapital qurilish, ob'ektlar turlari (bir oilaga mo'ljallangan uy-joy, ko'p qavatli uylar), ijtimoiy-madaniy ob'ektlar, ishlab chiqarish, kollej va litseylar bo'yicha rekonstruksiya qilish ko'rsatilgan hududlar kesimida qurilish loyihalari manzilli dasturi;

7. Ob'ektlar turlari bo'yicha qurilish materiallarining konsolidasiyalangan masofaviy xarajatlarini aniqlash;

8. Qurilish materiallarining asosiy turlariga narxlar dinamikasini o'rganish.

O‘zbekistonda keyingi yillarda ilg‘or qurilish texnologiyalari va energiya samaradorligi xalqaro standartlari talablariga javob beradigan yangi turdagi zamonaviy qurilish va pardoqlash materiallari ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Bular gipsokarton, quruq aralashmalar, zamonaviy tom yopish materiallari, issiqqa chidamli polimer quvurlari, keramik plitkalar, "sendvich" panellar, bazalt tolasi va armatura, issiqlik izolyasiyalash materiallari.

Tabiiyki, katta hajmdagi qurilish ishlari nafaqat katta hajmdagi uskunalar va mutaxassislarni talab qiladi. Qurilish materiallari sohaning asosiy bo‘g‘inidir. Shu bois mamlakatimizda yangi turdagi sifatli, zamonaviy, energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ularni chiqarish bo‘yicha yirik loyihalarni amalga oshirish sohaga investorlarni keng jalb etish, mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash hisobiga amalga oshirilmoqda. Bu boradagi dasturiy yo‘nalish davlatimiz rahbarining 2019-yil 20 fevraldagi “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4198 sonli qarorida³⁸ va 2019-yil 23 maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4335-sonli qarorlari³⁹ sohani rivojlantirish istiqbollari va strategiyasini belgilab bergan.

So‘nggi ikki yil qurilish sektori uchun qiyin bo‘ldi. Professional hamjamiyat bozorni ushlab turish va barqarorlikni saqlash uchun juda ko‘p mehnat talab qildi. Pandemiya vaziyatga qaramay, qisqa turg‘unlikdan so‘ng hokimiyat ko‘magida uy-joy va savdo ob‘ektlarini qurish bo‘yicha qurilish maydonlarida ishlar tiklandi. Bugungi kunda sohada 1,5 millionga yaqin quruvchi faoliyat yuritadi. 2021-yil holatiga qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 43,3 mingtaga etdi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5 mingtaga ko‘pdir.

³⁸ Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 20 fevraldagi “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4198 sonli qarori.

³⁹ Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 23 maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4335-sonli qarorlari

Qurilish korxonalari umumiy sonining 56,9 foizi bino va inshootlar qurishga, 9,9 foizi fuqarolik ob'ektlari qurishga, 33,2 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning birinchi yarmida qurilish xarajatlari 48,6 trillion so'mni tashkil qilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, davlat tashkilotlari tomonidan 1 trillion 971 milliard so'mdan ortiq qurilish ishlari bajarildi. Shunday qilib, ularning respublikadagi ulushi 4,1 foizni tashkil etdi.

Uy-joy qurilishi qurilish sanoatining lokomotivi bo'lib qolmoqda. Qurilish sanoati korxonalari sonining 2022-yil holatiga 2021-yilning mos davriga nisbatan 113,0 foizga o'sishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omil bino va inshootlar qurish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar sonining o'sishidir, ya'ni tuzilmalar 56,9 foizga qurilish sanoati korxonalari umumiy sonidan (o'sish sur'ati – 111,0 foiz), fuqarolik ob'ektlari – 9,9 foizga (o'sish sur'ati – 115,9 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 33,2 foizga (o'sish sur'ati – 115,7 foiz) oshgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan joriy amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 12 114,5 milliard so'mni tashkil etdi. 2021-yilning mos davriga nisbatan ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish-montaj ishlarining o'sish sur'ati 85,7 foizga etdi va ularning umumiy hajmdagi ulushi 4,5 foizga kamayib, 24,9 foizni tashkil etdi.⁴⁰

Belgilangan muddatda respublika mahalliy lashtirish tashabbusining ajralmas jihati sifatida import o'rnini bosishga qaratilgan keramik plitkalar, sanitariya-gigiyena buyumlari, chinni tosh buyumlar, dekorativ shisha, bazalt armatura va devor qoplamalarini ishlab chiqarish bo'yicha malakalilikka erishdi. . O'tgan yilda xorijiy kapital oqimi va kredit kanallari bilan faol hamkorlik qilish orqali yirik investitsion majburiyatlar amalga oshirildi. Yangi ishlab chiqarish korxonalari sotib olindi, bu esa har qanday xorijiy importga bo'lgan ehtiyojni samarali ravishda

⁴⁰ <https://e-cis.info/news/566/94024/>

qopladi va buning o'rniga xalqaro eksport uchun astarlangan zamonaviy qurilish materiallarini yaratishga olib keldi.

O'tgan yili qurilish materiallari ishlab chiqarishni ko'paytirish, narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi tahlil qilinib, ushbu mahsulotlar narxining asossiz oshishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rildi. Sement, pishiq g'isht va ohak ishlab chiqaruvchi korxonalarni muqobil yoqilg'i – ko'mirga o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, tegishli ishlar amalga oshirildi. Umuman olganda, mamlakatimiz qurilish materiallari sanoati salmoqli eksport salohiyatiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 25-oktabrdagi "Qurilish materiallari sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "O'zqurilishmateriallari" AJ "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasiga aylantirildi va 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20-fevraldagi "Qurilish materiallari sanoatini tubdan yaxshilash va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "O'zqurilishmateriallari" aksiyadorlik jamiyati "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasiga aylantirildi.

Bugungi kunga qadar "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibiga 100 dan ortiq turdagi qurilish materiallari ishlab chiqaradigan 120 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularning aksariyati rivojlanayotgan qurilish materiallari bozoriga yo'naltirilgan kichik korxonalaridir.

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibiga quyidagi yo'nalishlarda turli qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi asosiy yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi tashkilot va muassasalar kiradi: sement ishlab chiqarish korxonalari, rangli metall ishlab chiqarish korxonalari, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar va devor materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar kon-geologik ekspeditsiya, maxsus qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari hamkor kompaniyalar, ilmiy-tadqiqot loyiha instituti.

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2015-2021-yillardagi moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu yillardagi barcha ko‘rsatkichlar dinamikasi saqlanib qolgan (2.1-jadval)

2.1-jadval

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari taxlili⁴¹

Mrld so‘m.

№	Kyrsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yilning 2018 yilga nisbati % da
1	2	5	6	7	8	9	10
1	Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha bahosi	2660	3943	2638	2698	3573	134
2	Sotilgan mahsulotlar tannarxi	1963	3041	1946	2224	2204	112
3	Foyda solig‘ini to‘lashgacha foyda	1040	1573	899	1272	849	81

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2016-2022 yillardagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari taxlili shuni ko‘rsatmoqdaki, asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha bahosi shu yillarda 195 % ga, sotilgan mahsulotlar tannarxi 157 % ga ortgan holda, foyda solig‘ini to‘lashgacha foyda esa 145% kamayganini ko‘rishimiz mumkin (2.1-jadval).

Korxonaning moliyaviy holati to‘g‘ridan-to‘g‘ri aktivlarga qo‘yilgan mablag‘larning qanchalik tez real pulga aylanishiga bog‘liq. (2.2.-jadval)

⁴¹ “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

2.2.-jadval

**“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining ishlab chiqarish faoliyati
baholanishi⁴²**

Mlrd.so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	2018 y.	2019y.	2020y.	2021-y.	2022-y.	2022-yil 2018- yilga nisbati o‘zgaris hi, %
1	2	5	6	7	8	9	10
1	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, mlrd.so‘m.	1217	1400	1946	2224	2204	181
2	Mahsulot sotishdan tushgan tushum, mlrd.so‘m.	2451	2763	3209	4000	3665	150
3	Asosiy fondlarning o‘rtacha qiymati	690	835,8	1057	979	1672	242
4.	Zaxiralarning o‘rtacha qiymati, mln.so‘m	685	758	789	879	1125	164
5	Aylanma mablarning o‘rtacha qiymati, mln.so‘m	1793	1989	2097	2192	1816	101
6	Debitorlik qarzdorligining o‘rtacha qiymati, mln.so‘m	319	419	497	1033	481	150
7.	Kreditorlik qarzdorligining o‘rtacha qiymati, mln.so‘m	380	579	301	279	555	146
8	Barcha aktivlarning o‘rtacha qiymati	2914	3495	4287	5559	6176	212

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining ishlab chiqarish faoliyati baholanishi 2018-2022-yillardagi ko‘rsatkichlari taxlili shuni ko‘rsatmoqdaki, shu yillar mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 113% ga, mahsulot sotishdan tushgan

⁴²“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

tushum 114%ga, asosiy fondlarning o'rtacha qiymati 158 %ga, zaxiralarning o'rtacha qiymati 142%ga, kreditorlik qarzdorligining o'rtacha qiymati 184%ga, barcha aktivlarning o'rtacha qiymati 144% ga ortgan holda, aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati 13% ga va debitorlik qarzdorligining o'rtacha qiymati (2.2.-jadval).

Qurilish materiallarining ayrim turlari uchun ustunlik texnologik omil bilan bog'liq bo'lib, birinchi navbatda murakkab va qimmat uskunalar, yirik ishlab chiqarish maydonlari, yuqori malakali ishchilar va boshqalarni talab qiladi.

2.2. Qurilish materiallari bozorining rivojlanishi

Qurilish sektori va qurilish materiallari sanoati o'rtasidagi simbiotik munosabatlar sezilarli. Monolit va yig'ma monolit turar-joy qurilishining rivojlanishi sement sanoati va temir-beton ishlab chiqarishning sezilarli o'sishiga olib keldi. Devor komponentlariga bo'lgan talabning kuchayishi mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini qayta qurish jarayonini amalga oshirishni, ularning ishlab chiqarish yo'nalishini gazbeton, ko'p bo'shliqli bloklar va shponli g'ishtlardan tayyorlangan elementlar va tarkibiy qismlarga o'tkazishni talab qildi. Qurilish kulolchiligi korxonalarida yangi turdagi kafel, chinni koshinlar va sun'iy tosh ishlab chiqarilmoqda. Polimer materiallar sanoati yuqori sifatli mahalliy linoleum va Yevropa standartlaridagi plastmassa quvurlarni ishlab chiqarmoqda.

Qurilish materiallari sanoati asosiy tarmoq sifatida ishlab chiqaruvchilarni rivojlanayotgan arxitektura paradigmalari, qurilish standartlari va qurilish texnologiyalariga normalariga rioya qilishga to'g'ri keladigan qurilish materiallarini yetkazib berish uchun tashkil etiladi.

Ushbu sektorning asosiy toifalari orasida statistik kontekstda nomoddiy mahsulotlar tarmoqlarining gobelenlari orqali tsement, g'isht va devor materiallarining assortimenti paydo bo'ladi. Ushbu spektr beton va uning murakkab tuzilmalari, asbest-sement hosilalari, keramika, plitkalar, yulka toshlari, izolyatsion

materiallar, tom yopish qismlari va turli xil qo'shimcha mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Qurilish materiallari sanoatiga quyidagi tarmoqlar kiradi:

1. sement ishlab chiqarish;
2. ohak, gips va mahalliy bog'lovchi materiallar va ulardan mahsulotlar ishlab chiqarish;
3. beton va yig'ma-beton konstruksiyalar va buyumlar ishlab chiqarish
4. devor materiallari ishlab chiqarish
5. qurilish keramikasi ishlab chiqarish
6. asbest va asbest-sement mahsulotlari ishlab chiqarish;
7. polimer qurilish materiallari ishlab chiqarish;
8. yumshoq tom yopish (myagkiye krovelnye) va gidroizolyatsiya materiallari ishlab chiqarish;
9. isitish tizimlarini ishlab chiqarish;
10. bo'yoq va laklar ishlab chiqarish;
11. tabiiy toshdan qoplamali materiallar va buyumlar ishlab chiqarish;
12. sanitariya-texnik mahsulotlar ishlab chiqarish;
13. g'ovakli to'ldiruvchilar ishlab chiqarish;
14. issiqlik izolyatsiya materiallari ishlab chiqarish;
15. nometall qurilish materiallari ishlab chiqarish;
16. sanitariya-texnik vositalar ishlab chiqarish;
17. yog'ochga ishlov berish ishlab chiqarish;
18. shisha ishlab chiqarish va boshqalar.

Ushbu tadqiqotda 2017-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda qurilish materiallarining asosiy turlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilingan.

Qurilish materiallari sanoatida mamlakatdagi qurilish islohotlarining yuqoriligi natijasida 2017-yildan 2022-yilgacha qurilish materiallarini ishlab chiqarishning o'sishi kuzatildi. 2.3-jadvalda 2017-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda qurilish materiallarining asosiy turlarini ishlab chiqarish dinamikasi ko'rsatilgan.

2.3-jadval ⁴³

№	Mahsulot nomi	O'cho v birligi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2022-yilning 2018-yilga nisbati
			soni	soni	soni	soni	soni	% da
1	Granit, yodgorliklar, pardoqlash yoki qurilish ishlari uchun qumtosh va boshqa toshlar	ming tonna	1 162	1 288	1 059	1 126	1 391	120
2	Mozaika ishlari uchun sirti 49 sm. kv.dan katta bo'lmagan, sirlangan, keramik plitkalar, kubiklar va shu kabi buyumlar	ming kv m	118	201	8 867	5 493	14 445	1224
3	Boshqa guruhlariga kiritilmagan sirlanmagan, keramik yerga yotqizish uchun plitalar va pechlar, pol va devorlarga qoplash uchun plitkalar	ming kv m	181	1 803	2 784	3 064	3 639	2010
4	Qurilish uchun o'tga chidamsiz keramik g'ishtlar (kremnezyomli tosh uni yoki diatomit tuproqlardan tayyorlangan buyumlardan tashqari)	ming dona	7	64	43	116	188	2686
5	Portlandsement	ming tonna	9 132	9 080	10 582	11 962	13 284	146
6	Sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyumlar	ming tonna	2 827	2 969	2 725	2 650	3 176	112
7	Asfalt yoki shu kabi materiallardan tayyorlangan o'ramlardagi buyumlar	ming kv m	6 581	6 049	9 977	6 924	11 008	167
8	Bloklar, listlar yoki o'ramlardagi shlak paxta, mineral silikat paxta va shu kabi mineral paxtalar	ming tonna	10	9	14	13	14	140

O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqarish dinamikasi 2022-yilda 2018-yilga nisbatan bu ko'rsatkichlar quyidagicha o'zgargan, granit, yodgorliklar,

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

pardozlash yoki qurilish ishlari uchun qumtosh va boshqa toshlar 10924 g tonnaga, mozaika ishlari uchun sirti 49 sm. kv.dan katta bo‘lmagan, sirlanmagan, keramik plitkalar, kubiklar va shu kabi buyumlar 11201,6 ming kv mga, mozaika ishlari uchun sirti 49 sm. kv.dan katta bo‘lmagan, sirlangan, keramik plitkalar, kubiklar va shu kabi buyumlar 14396,3 ming kv mga, boshqa guruhlariga kiritilmagan sirlanmagan, keramik yerga yotqizish uchun plitalar va pechlar, pol va devorlarga qoplash uchun plitkalar 3473,3 ming kv mga, qurilish uchun o‘tga chidamsiz keramik g‘ishtlar (kremnezyomli tosh uni yoki diatomit tuproqlardan tayyorlangan buyumlardan tashqari) 153,4 ming donaga, portlandsement 4638,4 ming tonnaga, sement, beton yoki sun‘iy toshdan yig‘ma konstruksiyalar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyumlar 3919,8 ming tonnaga, quyish uchun tayyor beton 3919,8 ming tonnaga, asfalt yoki shu kabi materiallardan tayyorlangan o‘ramlardagi buyumlar 622,8 ming kv mga, bloklar, listlar yoki o‘ramlardagi shlak paxta, mineral silikat paxta va shu kabi mineral paxtalar 3,5 ming tonnaga va qatlamlarga ajralgan vermikulit, shishirilgan loy, ko‘pirtirilgan shlak va boshqa shishirilgan mineral mahsulotlar, jumladan ularning aralashmalari 7,8 ming tonnaga ortgan holda marmar, yodgorliklar, pardozlash yoki qurilish ishlari uchun va boshqa ohakli toshlar 229,5 ming tonnaga, boshqa guruhlariga kiritilmagan sirlangan, keramik yerga yotqizish uchun plitalar va pechlar, pol va devorlarga qoplash uchun 7303,6 ming kv mga, qurilish uchun o‘tga chidamsiz keramik g‘ishtlar (kremnezyomli tosh uni yoki diatomit tuproqlardan tayyorlangan buyumlardan tashqari) 422 mln donaga, so‘ndirilmagan va so‘ndirilgan ohak 282,3 ming tonnaga, gidravlik ohak 4,4 ming tonnaga, asbestosementdan yoki shu kabi tarkibida asbest bo‘lgan materiallardan buyumlar 46,0 ming tonnaga va boshqa guruhlariga kiritilmagan, qurilishda, bezashda yoki xaykaltaroshlikda ishlatiladigan ishlov berilgan tosh va undan tayyorlangan boshqa buyumlar (ohaktosh, tuf, bazalt va b.) 396,7 ming tonnaga kamaygani kuzatilmoqda (2.3.-jadval).

Qurilish sektorida birlamchi mahsulotlarni ishlab chiqarish istiqbolda moliyaviy qaytish sharti bilan o‘zini qoplashi kerak. yangi obektlarni barpo etish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish juda katta mablag` talab qiladi. Sement,

shisha kabi qurilish materiallari turlarini ishlab chiqarish energiyani ko'p talab qiladi, bu esa mahsulot tannarxiga ta'sir qiladi.

Yurtimizdagi 4 ta korxonaga to'liq texnologik siklli sement ishlab chiqaradi. Umumiy ishlab chiqarish quvvati qariyb 6,5 million tonnani tashkil etadi, bu nafaqat respublika ehtiyojlarini qondirish, balki eksportga mahsulot yetkazib berish imkonini beradi. Investitsion faollikning pasayishi bilan bog'liq sement ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishidan so'ng, sement ishlab chiqarishning bosqichma-bosqich o'sishi kuzatilmoqda (har yili taxminan 5 foiz).

2.4-jadval

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi bo'yicha 2016-2022-yillarda Investitsiya dasturi doirasida qurilish materiallari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalarining amalga oshirilishi bo'yicha YIG'MA MA'LUMOT⁴⁴

mln.dollar

Yillar	Loyihalar soni	Loyihalar-ning umumiy qiymati (mln.dollar)	Investitsiya mablag'larini o'zlashtirish, jami		bajari-lishi, %da	shundan xorijiy investitsiyalar		baja ri-lishi, %da
			prognoz	haqiqat		prognoz	Haqiqat	
2018 yil	13	203,2	72,4	73,3	101,3%	15,3	17,6	114,9%
2019 yil	10	411,4	123,0	130,4	106,0%	98,3	106,8	108,6%
2020 yil	20	642,3	248,5	260,3	104,8%	208,8	210,6	100,9%
2021 yil	17	868,5	274,9	277,0	100,8%	200,7	201,1	100,2%
2022 yil	41	887,8	327,6	328,3	100,2%	201,0	201,6	100,3%

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasida Investitsiya dasturi doirasida qurilish materiallari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalarining amalga oshirilishi 2022-yilda 2018-yilga nisbatan quyidagicha o'zgargan, loyixalar soni 22taga,

⁴⁴ "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

loyixalarning umumiy qiymati 704,5 mln AQSH dollarga ortgan bo‘lib, jami investitsiya mablag‘larini uzlashtirish esa 2022-yilda 102,2 % ni tashkil etib, jami investitsiyada xorijiy investitsiyalar shu yillarda 180 mln AQSH dollariga ortgan bo‘lib 2022-yilda o‘zlashtirish 100,3 % tashkil etgan.

2.5- jadval.

Qurilish materiallari sanoatida mahsulot tannarxi tarkibi, milliard so‘m⁴⁵


Xarajatlar turlari	Yillar					2022-yil 2018-yilga nisbatan o‘zgarishi (+/-)
	2018	2019	2020	2021	2022	
1	2	3	4	5	6	7
Moddiy xarajatlar	84	97	125	181	289	344
Amortizatsiya	1382	1491	1581	1718	1901	138
Ish xaqqi	307	354	390	446	476	155
Boshqa xarajatlar	582	608	647	593	639	110

Qurilish materiallari sanoatida mahsulot tannarxi tarkibi, 2022-yilda 2020-yilga nisbatan moddiy xarajatlar 320 mlrd so‘mga, amortizatsiya xarajalari 164 mlrd so‘mga ortgan holda, ish xaqi xarajatlari 86 mlrd so‘mga va boshqa xarajatlar 8 mlrd so‘mga kamaygannini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish majmuasining muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida o‘shishni rag‘batlantirish, balki eng dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishga ham hissa qo‘shishi mumkin. Qurilish sohasini qamrab olgan ko‘plab muammolar, masalan, xom ashyo va energiya manbalariga sarf-xarajatlarning ko‘payishi, obektlar tannarxining oshishiga olib kelishi mumkin, aksar hollarda qurilish materiallari sanoati dinamikasida samaradorlik ko‘rsatkichi proporsionalligi to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Qurilish natijalarini baholashga to‘lovlarni kechiktirish va byudjet mablag‘larini moliyalashtirish uchun veksellar

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

kabi pul ishonchnomalarini qabul qilish bilan bog'liq amaliyotlar to'sqinlik qilmoqda.



1.4-rasm. Qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning amaldagi iqtisodiy mexanizmi⁴⁶

Qurilish materiallari bozorini tartibga solishning taklif etayotgan mexanizmi o'z ichiga

1. Bozor monitoring va ma'lumotlar to'plash- Bozor dinamikasi, narxlar, taklif-talab tendentsiyalari va boshqa tegishli omillar to'g'risida ma'lumotlarni to'plash uchun mustahkam monitoring tizimini joriy etish juda muhimdir. Bunga potentsial muammolarni, bozorni manipulyatsiya qilish yoki raqobatga qarshi xatti-harakatlarni aniqlash uchun muntazam bozor so'rovlari, ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot berish mexanizmlari kiradi.

2. Sifat kafolati va standartlar- Qurilish materiallarining sifatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar va standartlarni ishlab chiqish va qo'llash qurilish loyihalarining xavfsizligi, chidamliligi va ishlashini ta'minlash uchun juda

⁴⁶ Muallif ishlanmasi

muhimdir. Bu texnik shartlarni belgilash, tekshiruvlar o'tkazish va tegishli standartlarga muvofiqligini tasdiqlashni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Narxlarni tartibga solish- Qurilish materiallari narxini nazorat qilish va tartibga solish narxlarning oshishi, adolatsiz amaliyotlar va narxlarning haddan tashqari o'zgarishining oldini olishga yordam beradi. Bu narx chegaralarini belgilash, narxlarni nazorat qilish mexanizmlari va narxlarni manipulyatsiyasiga qarshi choralarini o'z ichiga olishi mumkin.

4. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish- iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va adolatli savdo amaliyotini ta'minlash mexanizmlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu iste'molchilarning shikoyat qilish mexanizmlarini, nizolarni hal qilish jarayonlarini va xaridorlarga ma'lumot va murojaat qilish huquqini berish uchun iste'molchilarni o'qitish tashabbuslarini o'z ichiga olishi mumkin.

5. Shaffoflik va axborot almashish- Narxlar, etkazib beruvchilar, mahsulot spetsifikatsiyalari va tartibga soluvchi talablar to'g'risida mavjud ma'lumotlarni taqdim etish orqali qurilish materiallari bozorida shaffoflikni rag'batlantirish juda muhimdir. Bunga manfaatdor tomonlar o'rtasida ma'lumot almashishni osonlashtiradigan onlayn portallar, ommaviy ma'lumotlar bazalari va aloqa kanallari orqali erishish mumkin.

Hisoblangan ko'p faktorli ekonometrik modelning (3) statistik ahamiyatini yoki tahlil qilinayotgan jarayonga muvofiqligini baholash uchun Fisherning F-testi qo'llaniladi. Fisherning F-testining hisoblangan qiymati uning jadvali qiymati bilan yonma-yon joylashtirilgan. $F_{hisob} > F_{jadval}$ bo'lsa, ko'p faktorli ekonometrik model (3) statistik ahamiyatga ega deb hisoblanadi va undan natijaviy ko'rsatkich – “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini ($\ln y$) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi.

Demak, (3) matematik modelimizning ahamiyatini tekshirish uchun F -faktorining ko'rsatilgan qiymatini aniqlaymiz. Buning uchun ozodlik darajalari $k_1 = m$ va $k_2 = n - m - 1$ hamda α ahamiyatlik darajasi bo'yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajalari $k_1 = 3$ va $k_2 = 10 - 3 - 1 = 6$ dan kelib chiqib, F -mezonning jadval qiymati $F_{\text{жадвал}} = 4,76$ ga teng. F -mezonning hisoblangan qiymati $F_{hisob} = 32,5210$ va jadval qiymati $F_{jadval} = 4,76$ ga teng va $F_{hisob} > F_{jadval}$ sharti bajarilganligi uchun (3) ko'p omilli ekonometrik modelni statistik ahamiyatli deyish mumkin hamda undan “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini ($\ln Y$) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin.

Ko'p omilli ekonometrik modelning (3) hisoblangan parametrlari (regressiya koeffitsiyentlari) ishonchliligini tekshirishda Styudentning t -mezonidan foydalaniladi. Styudentning t -mezonining hisoblangan (t_{hisob}) va jadval (t_{jadval}) qiymatlarini taqqoslab, N_0 gipotezani qabul qilamiz yoki rad etamiz. Buning uchun t -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi (d.f. = $n - m - 1$) shartlar asosida topamiz. Bu yerda n - kuzatuvlar soni, m - omillar soni.

Ko'p faktorli ekonometrik model (3) doirasida hisoblangan parametrlarning (regressiya koeffitsientlari) ishonchliligini tekshirish uchun talabalarning t-testi qo'llaniladi. Student t-testining hisoblangan (t_{hisob}) va jadvali (t_{jadval}) qiymatlarini taqqoslash orqali biz N_0 gipotezasini tasdiqlaymiz yoki rad etamiz. Buni amalga oshirish uchun t-statistikaning belgilangan ishonchlik ehtimoli (α) va erkinlik darajasini ($d.f. = n - m - 1$) hisobga olgan holda jadvali qiymatini aniqlaymiz. Bu erda kuzatishlar sonini bildiradi, o'zgaruvchilar soniga mos keladi.

Ishonchlik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi $d.f. = 10 - 3 - 1 = 6$ bo'lganda, t -mezoning jadval qiymati $t_{\text{жадвал}} = 2,4460$ ga teng.

Har bir omil bo'yicha t -mezoning hisoblangan qiymatlari $\alpha = 0,05$ aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko'rish mumkin (3-jadval). Bu esa mazkur omillarning ko'p omilli ekonometrik modelda qatnashishlariga imkon beradi.

Demak, ko'p omilli ekonometrik model (3) da barcha ta'sir etuvchi omillar modelda qoldiriladi va prognozda foydalaniladi.

Ko'p omilli ekonometrik model (3) bo'yicha natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz.

Hisoblangan DW qiymati jadvaldagi DW_L va DW_U bilan solishtiriladi. Agar $DW_{hisob} < DW_L$ dan kichik bo'lsa, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud deyiladi. $DW_{hisob} > DW_U$ dan katta bo'lsa, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati $DW_L = 0,82$ ga teng va yuqori chegarasi qiymati $DW_U = 1,75$ ga teng. $DW_{hisob} = 1,77808$ ga teng. Demak, $DW_{hisob} > DW_U$ bo'lgani uchun natijaviy omil ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini ($\ln y$)) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.



















Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi ham yuqorida keltirilgan (3) ko'p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirishda hisoblangan avtokorrelyatsiya va xususiy avtokorrelyatsiya qiymatlari tekshiriladi. Agar ushbu ko'rsatkichlarning hisoblangan qiymatlari kamayish tartibi bilan joylashgan bo'lsa hamda ularning ehtimolliklari (prob.)=0.05 dan kichik bo'lsa, avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi va avtokorrelyatsiya va xususiy avtokorrelyatsiya bo'yicha diagramma tuziladi (3.4-rasm).

Date: 12/06/22 Time: 21:26

Sample: 2017S1 2021S2

Included observations: 10

Autocorrelation	Partial Correlation	AC	PAC	Q-Stat	Prob	
		1	0.694	0.694	6.4161	0.011
		2	0.452	-0.057	9.4756	0.009
		3	0.149	-0.276	9.8553	0.020
		4	-0.200	-0.379	10.655	0.031
		5	-0.338	0.047	13.401	0.020
		6	-0.439	-0.079	19.189	0.004
		7	-0.366	0.089	24.553	0.001
		8	-0.259	-0.093	28.568	0.000
		9	-0.192	-0.175	32.983	0.000


3.4-rasm. Avtokorrelyatsiya va xususiy avtokorrelyatsiya⁶⁷

3.4-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, yuqorida keltirilgan shartlar bajarilgan, ya'ni ko'rsatkichlarning hisoblangan qiymatlari kamayish tartibi bilan joylashgan hamda ularning ehtimolliklari (prob.) 0.05 dan kichik (barchasining qiymatlari nolga teng).

Demak, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi (lnY) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.

⁶⁷ Muallif ishlanmasi

Hisoblangan ko‘p omilli (3) ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 3.5-rasmda keltirilgan.



3.5-rasm. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxining haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) grafigi⁶⁸

3.5-rasmdan ko‘rish mumkinki (3) ko‘p omilli ekonometrik model bo‘yicha “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxining hisoblangan qiymatlar grafigi uning haqiqiy qiymatlari grafigi bilan juda yaqin joylashgan, ular o‘rtasidagi farqlar ham unchalik katta emas. Bu esa (3) ko‘p omilli ekonometrik modeldan “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkinligini yana bir isboti hisoblanadi.


⁶⁸ Muallif ishlanmasi

MARE koeffitsienti (O'rtacha mutlaq foiz xatosi) kelgusi davrlar uchun natija o'lchovini proektsiyalashda olingan ko'p faktorli ekonometrik model (3) asosida hisoblanadi. Bu quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MAPE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \frac{|y_i - \hat{y}_i|}{y_i} \cdot 100\%, \quad (5)$$

bu yerda y_i - natijaviy omilning haqiqiy qiymatlari, \hat{y}_i - natijaviy omilning hisoblangan qiymatlari.

Agar hisoblangan MARE koeffitsiyenti qiymati 15,0 foizdan kichik bo'lsa, modeldan natijaviy omilni prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi, aks holda foydalanib bo'lmaydi. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi bo'yicha MARE koeffitsiyentining qiymati 0,7207 foizni tashkil etmoqda (3.6-rasm).



Forecast: LNYF	
Actual: LNY	
Forecast sample: 2017S1 2021S2	
Included observations: 10	
Root Mean Squared Error	0.060254
Mean Absolute Error	0.048057
Mean Abs. Percent Error	0.720784
Theil Inequality Coefficient	0.004446
Bias Proportion	0.000000
Variance Proportion	0.014919
Covariance Proportion	0.985081

3.6-rasm. Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish ko'rsatkichlari⁶⁹

Bu esa 15,0 foizdan kichik (MAPE=0,7207). Shuning uchun ham (3) ko'p omilli ekonometrik modeldan "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi omonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini prognozlashda foydalanish mumkin.

⁶⁹ Muallif ishlanmasi

Shunday qilib, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi va unga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik model (3) bir qator mezonlar yordamida tekshirildi va undan kelgusi davrlarda omillarni prognozlashda foydalanish mumkinligi aniqlandi. Shuning uchun ham (3) Ko‘p qirrali ekonometrik modeldan foydalangan holda, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan kelgusi davrlar uchun mahsulot tannarxini bashoratli hisob-kitoblarni amalga oshiramiz. Dastlab, har bir ta'sir etuvchi omil uchun trend modelini yaratamiz. Trend modeli ta'sir omilining vaqtga bog'liq funksiyasini o'z ichiga oladi va odatda quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

$$X_i = \beta_0 + \beta_1 \cdot t + \varepsilon \quad (6)$$

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining asosiy vositalari o‘rtacha yillik qiymati (mln. so‘m hisobida) ($\ln X_1$) bo‘yicha trend model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\ln \hat{X}_1 = 5,6808 + 0,0963 \cdot t \quad (7)$$

$$R^2 = 0,8060, F_{\text{hisob}} = 33,2371, t_{\text{hisob}} = 5,7652 .$$

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining aylanma mablag‘lari qiymati (mln. so‘m hisobida) ($\ln X_2$) bo‘yicha trend model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\ln \hat{X}_2 = 6,8495 + 0,0078 \cdot t \quad (8)$$

$$R^2 = 0,7606, F_{\text{hisob}} = 7,5164, t_{\text{hisob}} = 2,7186 .$$

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi (mln. so‘m hisobida) ($\ln X_3$) bo‘yicha trend model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\ln \hat{X}_3 = 7,0490 + 0,0576 \cdot t \quad (9)$$

$$R^2 = 0,7789, F_{\text{hisob}} = 28,1905, t_{\text{hisob}} = 5,3095 .$$

Ta'sir omillari va vaqtinchalik omil o'rtasida o'rnatilgan trend modellarini tekshirish shuni ko'rsatadiki, trend modellaridagi barcha hisoblangan koeffitsientlarning statistik ahamiyati va ishonchliligi (7) - (9) aniqlangan.

Shunga ko'ra, biz (7) - (9) trend modellarini baholaymiz va ularning hisoblangan qiymatlarini ko'p qirrali ekonometrik modelga kiritamiz (3). Dastlab, biz ta'sir etuvchi omillarning prognoz qilingan qiymatlarini va keyinchalik natijaviy omilni taxmin qilamiz. Keyinchalik, kutilgan qiymatlarning logarifmik tabiatini yo'q qilish uchun eksponentsiyani qo'llaymiz.

Natijada “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxining ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan o‘zgaruvchilarining prognoz davridagi qiymatlariga ega bo‘lamiz (3.6-jadval).

3.6-jadval


“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi va unga ta’sir etuvchi omillarning 2000-2022-yillardagi dinamikasi va 2023-2025-yillarga prognoz qiymatlari⁷⁰

No	Mahsulot tannarxi, mlrd. so‘m, Y	Asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymati, mln. so‘m, X1	Aylanma mablag‘lar qiymati, mln. so‘m, X2	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mln. so‘m, X3
2017	1217.0	689.9	1793.0	2451.0
2018	1400.0	835.8	1989.0	2763.0
2019	1946.0	1057.0	2097.0	3209.0
2020	2224.0	979.0	2192.0	4000.0
2021	2204.0	1672.0	1816.0	3665.0
2022	2823.5	1777.8	2063.7	4471.2
2023*	3313.3	2155.6	2096.1	5017.6
2024*	3888.1	2613.7	2129.0	5630.7
2025*	4562.6	3169.2	2162.5	6318.7

⁷⁰ Muallif ishlanmasi

Ushbu omillarning grafiklari quyidagicha (3.7-3.10 - rasmlar).


Quyidagi 3.7-rasmda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxining 2017-2022-yillardagi dinamikasi keltirilgan.



3.7-rasm. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxining 2000-2022-yillardagi dinamikasi va 2023-2025-yillarga prognoz qiymatlari, mln. so‘m

Ushbu 3.7-rasmdan ko‘rish mumkinki, uyushmada 2016-2022-yillar mobaynida mahsulotlar tannarxi yillik o‘rtacha 1969,1 mln. so‘mga ortib borgan. Uyushmada 2022-yilda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi 2017-yilga nisbatan 2,32-martaga oshgan. Bundan tashqari prognoz davriga kelib uyushmada mahsulotlar tannarxining o‘shishini kuzatish mumkin. 2025-yilda uyushma tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi 2023-yilga nisbatan 1731.9 mln. so‘mga yoki 1,62 barobarga ortishi kuzatilmoqda. Bu ko‘rsatkich retrospektiv davrga (2017-2022-y.y.) nisbatan 30,3 foyizga kamayishini ko‘rsatmoqda.

Quyidagi 3.8-rasmda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymati ning 2017-2022-yillardagi dinamikasi va prognoz davridagi hisoblangan qiymatlari keltirilgan.




3.8-rasm. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymatining 2017-2022-yillardagi dinamikasi va 2023-2025-yillarga prognoz qiymatlari, , mln. so‘m⁷¹

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-2022-yillarda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymati 1168,6 mln. so‘mni tashkil etgan. Yillik o‘rtacha o‘sish 1,23 barobarni tashkil etgan. Eng kam o‘sish 2020-yilni tashkil etgan bo‘lsa (pandemiya davrida), eng yuqori o‘sish 2021 va 2022-yillarga to‘g‘ri kelmoqda. Prognoz davri 2023-yildan boshlab uyushmaning asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymati 2646,2 mln. so‘mni, yoki 21 foizni martani tashkil etmoqda. Uyushmaning asosiy vositalari qiymati prognoz davrida o‘sish tendensiyasiga ega. Chunki, qurilish materiallari bozorida talab va taklif jadal o‘shib borish tendensiyasiga ega. 2025-yilda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymati 2022-yilga nisbatan 1,78-martaga ortishi kuzatilmoqda.

Quyidagi 3.9-rasmda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi aylanma mablag‘lar qiymatining 2000-2022-yillardagi dinamikasi va 2023-2025-yillardagi hisoblangan prognoz qiymatlari keltirilgan.

⁷¹ Muallif ishlanmasi



3.9-rasm. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi aylanma mablag‘lar qiymatining 2000-2022-yillardagi dinamikasi va 2023-2025-yillarga prognoz qiymatlari, mlrd. so‘m⁷²

3.9-rasmda ko‘rish mumkinki, 2017-2020-yillarda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi aylanma mablag‘lar qiymati yiliga o‘rtacha 2192,0 mlrd. so‘mga ortib borgan. Ammo, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 1816,0 mln. so‘mni tashkil etgan. 2020-yilga nisbatan uyushma aylanma mablag‘lar qiymati salkam 10,0 foizga kamaygan. Shunga qaramasdan, 2022-yilda uyushma aylanma mablag‘lar qiymati yana o‘shida davom etib, 2063.7 mln. so‘mni tashkil etgan. Ushbu kamayish uyushmaning aylanma mablag‘larining prognoz davrida ham keskin oshib ketishga ta’sir ko‘rsatgan. Natijada prognoz davrida yillik o‘rtacha o‘shish 1,016 foizni tashkil etmoqda. Prognoz davri, ya’ni 2025-yilga kelib “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi aylanma mablag‘lar qiymati 2162.5 mln. so‘mni tashkil etishini kuzatish mumkin.

Shu bilan birga “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasida mahsulot ishlab chiqarish hajmining retrospektiv davrda ham, prognoz davrida ham o‘shish sur‘atlarini ko‘rish mumkin. Agar 2017-2022-yillarda uyushma tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o‘rtacha hajmi yiliga 3426,5 mln. so‘mni tashkil etgan

⁷² Muallif ishlanmasi

bo'lsa, prognoz davrida yillik o'rtacha 5655,6 mln. so'mga yetishi kuzatilmoqda (3.10-rasm).



3.10-rasm. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasida mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2000-2022-yillardagi dinamikasi va 2023-2025-yillarga prognoz qiymatlari, mln. so‘m

Retrospektiv davrga ko‘ra prognoz davrida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 112,2 foizni tashkil etmoqda. –



O‘zbekiston qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi va uning istiqbollari munosabati bilan energiya samaradorligini oshirish xalqaro standartlariga javob beradigan yangi turdagi zamonaviy qurilish materiallari, jumladan, "sendvich" panellar, keramika sanitariya-texnik buyumlar, gazbeton

bloklari, issiqlik saqlash materiallari paydo, gipsokarton plitalari, sement asosidagi tom yopish materiallari, quruq qurilish aralashmalari, polipropilen quvurlar, marmar va travertin mahsulotlari, yog‘och chiplari, bazalt kompozit armatura.

Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash ham yo‘lga qo‘yildi, raqobatbardosh va eksportbop qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlari kengaytirildi. Bu esa o‘z navbatida, yangi turdagi yuqori sifatli qurilish materiallariga ichki ehtiyojni ta‘minlamoqda.

Ushbu yutuqlar qurilish materiallariga bo‘lgan talabni sinchkovlik bilan tahlil qilish, mahalliy qurilish materiallari bilan ichki bozorni to‘ldirish va eksport ufqini kengaytirish orqali innovatsion mahsulot toifalari evolyutsiyasini rag‘batlantirishga qaratilgan yaxlit strategiyalardan kelib chiqadi, deb ta‘kidlash to‘g‘ri bo‘lar edi. Buni yangi qurilish materiallari va metodologiyalarining o‘zlashtirilishi, ilmiy xorijiy tajribalarni hisobga olish, respublika xomashyo zaxiralaridan foydalanish muhim yutuq sifatida tasdiqlaydi.

Arzon va sifatli qurilish materiallari ishlab chiqarish, bu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida ‘tibor qaratilayotgani nafaqat ichki bozorni ta‘minlash, balki xorijiy mamlakatlarga ‘ksport qilish imkoniyatini ham yaratmoqda. Ijod bor joyda taraqqiyot bor. Sohani rivojlantirishga qaratilgan ishlar mamlakatimizni yanada rivojlantirish barobarida xalqimiz farovonligiga xizmat qilmoqda.

3-bob bo‘yicha qisqacha xulosa

Tabiiy resurslarni qayta ishlash texnikasining rivojlanishi turar joy va sanoat qurilishi uchun katta ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan ko‘plab yangi qurilish materiallarini taqdim etdi. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” konsorsiumi jahon andozalariga mos ravishda yuqori darajadagi qo‘shimcha qiymatli mahsulotlarni yetishtirish uchun taniqli investorlarni faol jalb qilmoqda. Bularga Avstriyaning “Gazgan Marble Group” MCHJsi (ishlab chiqarish quvvati yiliga 300 kv.metr tosh qoplama ishlab chiqaradi.) va boshqa Italiya kompaniyalari kiradi.

Qurilish hajmining oshishiga yordam beruvchi asosiy manba import o'rnini bosuvchi mexanizmlarni takomillashtirish va xarajatlarni qisqartirishdir. Bunga zamonaviy yuqori sifatli qurilish materiallarini energiya tejovchi ishlab chiqarish protokollariga integratsiya qilish orqali erishiladi va shu bilan yakuniy mahsulotni tejamkor ishlab chiqarishga yordam beradi. Bundan tashqari, tayyor mahsulotni ko'paytirish bilan birga material sarfini kamaytiradigan innovatsion strukturaviy dizaynlar xarajatlarni kamaytirishga foydali hissa qo'shadi.

Qurilish sohasida import o'rnini bosishga intilish ikkita asosiy yo'ldan foydalanishni talab qiladi, ularning har biri davlat tomonidan tartibga soluvchi aralashuvni o'z ichiga olgan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning alohida strategiyalarini talab qiladi.

Qurilish tovarlarining import o'rnini bosish import qilinadigan qurilish materiallari yetkazib berishdagi uzilishlar zaifligini yumshatish va qurilayotgan ob'ektlar uchun optimal sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashga qaratilgan.

Qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalari doirasida import o'rnini bosish mahalliy raqobatbardosh qurilish mahsulotlarining paydo bo'lishini tartibga soluvchi va iqtisodiy rag'batlantirishga qaratilgan. Bu mahalliy ishlab chiqarishni ko'paytirishni ham, qurilish materiallari sektori, qurilish sanoati va shunga o'xshash tarmoqlarda texnologik va boshqaruv innovatsiyalarini joriy qilishni ham o'z ichiga oladi.

Qurilish sektori kontekstida import o'rnini bosish mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun bozorga yo'naltirilgan asosda xalqaro tashkilotlar bilan raqobatlasha oladigan raqobat maydonini yaratish sifatida talqin qilinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Xorijiy va mamlakatimiz olimlarining menejmentning tartibga solish funksiyasi mazmuni, mohiyatini ochib beruvchi fikrlari, ilmiy ta'riflari umumlashtirilgan va mualliflik xulosalari chiqarilgan. Tartibga solish funksiyasini turlari va bosqichlari aniqlangan, tamoyillari asoslangan.

Erkin bozorni tartibga solishda davlat faol ishtirok etishi lozim, chunki unga qator vazifalar yuklatiladi:

1. Jamiyatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
2. Moddiy boyliklar va daromadlarni qayta taqsimlash orqali aholini ijtimoiy himoyalash;
3. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini nazorat qilish orqali iqtisodiyot sohalarining mutanosib rivojlanishini ta'minlash;
4. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

Davlatning ana shu vazifalaridan kelib chiqib O'zbekistonda qurilish materiallari bozorini tartibga solish yo'nalishlari ishlab chiqildi va ushbu masalaga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar maxkamasining qarorlari tizimlashtirilib, tegishli xulosalar chiqarildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 180 ortiq turdagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi 12,5 mingdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda, 24 ta tuman (shahar) qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 2022-yilga kelib yuqori sifatli qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha 667 ta xalqaro standart qabul qilingan.

Qurilish korxonalarining umumiy sonining 56,9 foizi bino va inshootlar qurishga, 9,9 foizi fuqarolik ob'ektlari qurishga, 33,2 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 12 114,5 milliard so'mni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish-montaj ishlari xajmi 85,7 foizga oshdi.

Shu bilan birga qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishda quyidagi muammolar majud:

1. Sement sanoatida bo'lgani kabi, korxonalar tomonidan yetkazib berilgan boshqa tovarlar uchun xam o'z vaqtida xaq to'lamaslik ishlab chiqaruvchilar uchun moliyaviy muammolarni keltirib chiqaryapti;

2. Yangi ishlab chiqarishni tashkil etishning kapital sig'imi yuqori bo'lganligi uchun tadbirkorlarda sarmoyalarning yetishmasligi kuzatilyapti;

3. Import qilinayotgan xom ashyo salmog'ining yuqoriligi. Umumiy moddiy xarajatlarning 86 foizigacha bo'lgan xom ashyo turlari Rossiyadan import qilinadi, bu esa korxonalarda katta valyuta resurslarini talab qiladi.

Tabiiy xom ashyolarni qayta ishlash texnologiyalarining rivojlanishi fuqarolik va sanoat qurilishiga ko'plab yangi ilm sig'mi yuqori bo'lgan qurilish materiallarini olib keldi. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi jaxon tendensiyalarini hisobga olib, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida brend investorlarni jalb qilmoqda. Bularga Avstriyaning "Gazgan Marble Group" MCHJsi (ishlab chiqarish quvvati yiliga 300 kv.metr tosh qoplama ishlab chiqaradi.) va boshqa Italiya kompaniyalari kiradi.

Kengaytirilgan qurilish mahsulotining asosiy kelib chiqishi import o'rnini bosish strategiyalarini takomillashtirish va xarajatlarni minimallashtirishdan iborat. Bu energiya tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqarishda eng so'nggi, yuqori darajadagi qurilish materiallarini qo'shish orqali amalga oshiriladi va shu bilan yakuniy iqtisodiy konstruksiyalarni kafolatlaydi. Yakuniy mahsulot rentabelligini oshirish bilan birga material iste'molini kamaytiradigan aqlli strukturaviy yondashuvlar mahsulot tannarxini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qurilish sohasida import o'rnini bosishga intilish ikkita asosiy yo'ldan foydalanishni talab qiladi, ularning har biri davlat tomonidan tartibga soluvchi aralashuvni o'z ichiga olgan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning alohida strategiyalarini talab qiladi.

Qurilish tovarlarining import o'rnini bosish import qilinadigan qurilish materiallari yetkazib berishdagi uzilishlar zaifligini yumshatish va qurilayotgan ob'ektlar uchun optimal sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashga qaratilgan.

Qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalari doirasida import o'rnini bosish mahalliy raqobatbardosh qurilish mahsulotlarining paydo bo'lishini tartibga soluvchi va iqtisodiy rag'batlantirishga qaratilgan. Bu mahalliy ishlab chiqarishni ko'paytirishni ham, qurilish materiallari sektori, qurilish sanoati va shunga o'xshash tarmoqlarda texnologik va boshqaruv innovatsiyalarini joriy qilishni ham o'z ichiga oladi.

Qurilish sektori kontekstida import o'rnini bosish mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun bozorga yo'naltirilgan asosda xalqaro tashkilotlar bilan raqobatlasha oladigan raqobat maydonini yaratish sifatida talqin qilinishi kerak.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan kompaniyalarning raqobatdosh ustunligini oshirish (mahsulot sifatini oshirish, tannarxni pasaytirish, sotish ko'rsatkichlarini oshirish, moliyaviy barqarorlikni oshirish va aylanmani tezlashtirish orqali) katta investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi.

Bozor muhitini tavsiflovchi o'ziga xos beqarorlik.

Shunga qaramay, qurilish materiallari sektoridagi texnologik va boshqaruv yutuqlarining butun iqtisodiy spektrda uzluksiz o'zlashtirilishi juda ko'p noyob nozikliklarga duch keladi va ularning nuanslarini sinchkovlik bilan o'ylashni talab qiladi.

Qurilish materiallari sanoatiga innovatsiyalarning faol integratsiyalashuvi O'zbekistonning bugungi strategik taraqqiyotida muhim yo'nalish bo'lib turibdi. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi ishlab chiqarayotgan mahsulotlari tannarxi bo'yicha ma'lumotlar asosida hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model (3) shuni ko'rsatadiki, uyushmaning asosiy vositalari o'rtacha yillik qiymati ($\ln X_1$) o'rtacha bir foizga ortsa, uyushmada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari tannarxi ($\ln Y$) o'rtacha 0,3396 foizga ortar ekan. Uyushma aylanma mablag'lari qiymati ($\ln X_2$) o'rtacha bir foizga oshsa, uyushmada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari tannarxi ($\ln Y$) o'rtacha 0,4568 foizga ortar ekan. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi ($\ln X_3$) o'rtacha bir foizga

o'sha, uyushmada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ($\ln Y$) o'rtacha 0,7583 foizga ortar ekan.

Ko'p faktorli ekonometrik modelga mos ravishda, "O'zsanoatqurilishmateriallari" birlashmasi mahsulot tannarxining hisoblangan qiymatlarining chizilgan traektoriyasi uning real qiymatlari traektoriyasiga sezilarli darajada yaqinligini, ular orasidagi tafovutlar nisbatan kichik ekanligini ko'rsatadi. Bu ko'p faktorli ekonometrik model (3) "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi uchun kelajakdagi mahsulot tannarxini prognozlash imkoniyatiga ega ekanligini qo'shimcha tasdiqlaydi.

Uyushmada 2017-2022-yillar mobaynida mahsulotlar tannarxi yillik o'rtacha 1969,1 mln. so'mga ortib borgan. Uyushmada 2022-yilda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi 2017-yilga nisbatan 2,32-martaga oshgan. Bundan tashqari prognoz davriga kelib uyushmada mahsulotlar tannarxining o'sishini kuzatish mumkin. 2025-yilda uyushma tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi 2023-yilga nisbatan 1731.9 mln. so'mga yoki 1,62 barobarga ortishi kuzatilmoqda. Bu ko'rsatkich retrospektiv davrga (2017-2022-y.y.) nisbatan 30,3 foyizga kamayishini ko'rsatmoqda.

2017-2020-yillarda "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi aylanma mablag'lar qiymati yiliga o'rtacha 2017,8 mln. so'mga ortib borgan. Ammo, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 1816,0 mln. so'mni tashkil etgan. 2020-yilga nisbatan uyushma aylanma mablag'lar qiymati salkam 10,0 foizga kamaygan. Shunga qaramasdan, 2022-yilda uyushma aylanma mablag'lar qiymati yana o'sishda davom etib, 2063.7 mln. so'mni tashkil etgan. Ushbu kamayish uyushmaning aylanma mablag'larining prognoz davrida ham keskin oshib ketishga ta'sir ko'rsatgan. Natijada prognoz davrida yillik o'rtacha o'sish 1,016 foizni tashkil etmoqda. Prognoz davri, ya'ni 2025-yilga kelib "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi aylanma mablag'lar qiymati 2162.5 mln. so'mni tashkil etishini kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining shaxarsozlik Kodeksi” Qonuni. 22.02.2021. O‘RQ-676 – son.
3. “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 27.12.1996-yildagi 355 – I- son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 01.02.2022
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda
6. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 09-iyundagi “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 6244-sonli Farmoni.
7. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF - 5963-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-5577-sonli Farmoni
<https://lex.uz/docs/4060063>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5392-sonli Farmoni

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli Farmoni

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-iyun 2021-yildagi 6244-sonli "Xududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta‘minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6243-son Farmoni

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23-may 2019-yildagi PQ-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4351738>

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21-fevral 2022-yildagi PQ-139-sonli "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori

15. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 20 fevraldagi "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4198 sonli qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04-oktyabr 2019-yildagi PQ-4477-sonli "2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tashdiqlash to‘g‘risida"gi Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05-fevral 2020-yildagi PQ-4586-sonli "Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to‘g‘risida"gi Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27-may 2020-yildagi PQ-4732-sonli "Ko‘p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-mayida PQ-2936-son O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3646-son Qarori

21. Qurilish materiallari sanoatini 2020-yilgacha va 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi loyixasi.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Qurilish sohasiga oid yagona ma’muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-sonli Qarori.

II. Monografiyalar, ilmiy maqolalar, patentlar, ilmiy to‘plamlar

22. Metyakubov A.D. Qurilish materiallari sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish, monog. – T: 2021. 183 b.

23. Nurimbetov R.I., Metyakubov A.D., “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qirilish materiallarini ishlab chiqarish sanoatining rivojlanish tendensiyalari”. Arxitektura i stroitelstvo Uzbekistana. Jurnal. 2017-y. 37-39 bet. (18.00.00. №7)

24. S. N. Kotlyarova. Ekonomika regiona. — 2016. — T. 12, вып 4. — S. 1146–1156. https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/92029/1/2016_12_4_016.pdf

25. O merax po realizatsii importozamещeniya v grajdanskix otraslyax promyshlennosti v interesax ukrepleniya natsionalnoy bezopasnosti // Analiticheskiy vestnik. — 2014. — №27 (545) [Elektronnyy resurs]. URL: <http://www.council.gov.ru/media/files/41d51d722c0fdcb10554.pdf> (data obrasheniya: 12.03.2016).

26. Animitsa Ye.G., Animitsa P.Ye., Glumov A.A. Importozamещение v promyshlennom proizvodstve regiona. Konseptualno-teoreticheskie i prikladnyye aspekty // Ekonomika regiona. — 2015. — №3. — S. 160–172.

27. Bruton H.J. A Reconsideration of Import Substitution // Journal of Economic Literature. — 1998. — Vol. 36, No. 2. — P. 903–936

28. Zayseva K.N. RADIKALNYYE INNOVATSII V PROIZVODSTVE STROITEL'NYKH MATERIALOV: RISKI, PROBLEMY VNEDRENIYA // Fundamentalnye issledovaniya. – 2019. – № 5. – S. 36-39.

29. Nikolaev V.P. Vvedenie v rynochnuyu ekonomiku stroitelstva // Ekonomika stroitelstva. – 1994. – № 4. – S.3-12.

30. Kas I. Sistema upravleniya ekonomikoy: plan i rynok // problemy teorii i praktiki upravleniya. 2008. №2. 59 –s.

31. A. Dikamova, N. A. Xalzova, (Tixookeanskiy gosudarstvennyy universitet, Xabarovsk). Segmentatsiya rynka stroitel'nykh materialov. Elektronnoe nauchnoe izdanie "Uchenye zametki TOGU" 2015, Tom 6, № 1, S. 314 – 317.

32. Nurimbetov R.I., Metyakubov A.D., Toshmuxeamedova K.S. Dostignutyte rezultaty i perspektivy razvitiya proizvodstva stroitel'nykh materialov. Sotsialno-ekonomicheskoe razvitie gorodov i regionov: Gradostroitelstvo razvitie biznesa, jizneobespechenie goroda. Materialy II Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, Volgograd, 3-fevralya 2017 goda. 426-429 s.

33. Yo'ldoshev, N.K. Menejment [Matn]: darslik / N.K. Yoldoshev, G.E. Zaxidov. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. – 392 b.

34. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment: Darslik. – Toshkent, O'qituvchi. 2001-y.

35. Vesnin, V.R. Osnovy menedjmenta: Uchebnik / V.R. Vesnin. – M.: Prospekt, 2016. - 256 s.

36. Ryabsev, A. Yu. Menedjment: ekonomicheskie aspekty upravleniya [Tekst] : ucheb. posobie / A. Yu. Ryabsev, T. B. Zagorulya ; M-vo obrazovaniya i nauki Ros. Federatsii, Ural. gos. ekon. un-t. — Yekaterinburg : [Izd-vo Ural. gos. ekon. un-ta], 2017.

37. Upravlenie organizatsiy: Uchebnik. / Pod red. A. G. Porshneva, Z. P. Rummyanseyevoy, N. Salomatina. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: INFRA-M, 2002. - 198 s.

38. Qosimov G'.M. Menejment: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: O'zbekiston, 2002. 256 b.
39. G'ulomov S.S. Menejment asoslari: Iqtisodiyot yo'nalishidagi Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – “Sharq”, 2002, 117 – b.
40. Rasulov M.R. Bozor iqtisodiyoti asoslari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik// So'z boshi: S.S.G'ulomov. T.: “O'zbekiston” 346-b.
41. Qosimov E., Qurilish ashyolari: Oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun darslik. — T.: “Mehnat”, 2004, —3 b.
42. Shimko P.D. Optimalnoe upravlenie ekonomicheskimi sistemami. – SPb: biznes-press. 2004. 178 –s.
43. Cherkasov G.I. Рынок: регулирование рынка: Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ-DANA. 2004. 150 – s.
44. Petrakov N.Ya., Vidyapin V.I., Juravleva G.P. Ekonomicheskie sistemy: kiberneticheskaya priroda razvitiya, gynochnye metody upravleniya. 2008. 106 – s.
45. Stepanov I.S. Ekonomika stroitelstva : Uchebnik. — 3-ye izd., dop. i pererab. — M. : Yurayt-Izdat 2007. 620 s.
46. Stroitelnye materialy i izdeliya : ucheb. posobie / V.S. Rudnov [i dr.] ; pod общ. red. dos., kand. texn. nauk I.K. Domanskoj.— Yekaterinburg : Izd-vo Ural. un-ta, 2018.
47. Stroitelnye materialy. Kratkiy kurs : ucheb. posobie // N. A. Mashkin, O. A. Ignatova; Novosib. gos. arxitektur.-stroit. un-t (Sibstrin). – 2-ye izd., pererab. – Novosibirsk : NGASU (Sibstrin), 2012. – S -11.
48. Ye.P.Kiyatkina, S.V.Fedorova “Ekonomika stroitelstva” Uchebnoe posobie. Samara: Samarskiy gosudarstvennyy arxitekturno-stroitelnyy universitet, 2011. S -71.
49. Qosimov I. Arzon zamonaviy qurilish ashyolari. Darslik. Toshkent arxitektura qurilish instituti. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU., 2017.
50. Abdullaev A.A. Strategiya povysheniya sotsialno- ekonomicheskoy effektivnosti malogo biznesa i chastnogo predprinimatelstva v stroitelnoy otrasli. (na primere Tashkentskoy oblasti). AVTOREFERAT doktorskoy dissertatsii (PxD)

po ekonomicheskim naukam. TASI. Tashkent – 2019. S -50.

51. Metyakubov A.D. Qurilish materiallari sanoatiga investitsiyalarni jalb etishning boshqarish samaradorligini oshirish. (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” AJ misolida) . Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. TDIU. – T: 2019. 50 b.

52. Matrizayeva D.Yu. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishni takomillashtirish. (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi misolida) Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. TDIU.– T: 2021. 60 b.

53. Kurbaniyazov Sh.K. “Qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy etish samaradorligi” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. TDIU – T: 2018. 55 b.

54. Djumaniyazov U.I. Davlat xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilish sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. TDIU.– T: 2017. 53 b.

55. Goroshkova A.V. Suxie stroitelnye sme s modifitsiruyushchey dobavkoy na osnove torfa. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata texnicheskix nauk. FGBOU VO “TGASU” Tomsk – 2015. S 24.

56. Bondarenko A. A. Organizatsionno – ekonomicheskii mexanizm razvitiya predpriyatiy promyshlennosti stroitelnykh materialov. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. FGBOU VO “Rossiyskiy ekonomicheskii universitet im. G. V. Plexanova”. Moskva – 2019. S – 29.

57. Begzade G.Sh. Osobennosti i napravleniya transformatsii mirovogo rynka stroitelnykh uslug. Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. (Federalnoe gosudarstvennoe byudjetnoe obrazovatelnoe uchrejdenie vysshego professionalnogo obrazovaniya “Gosudarstvennyy universitet upravleniya”) Moskva, 2015. S - 187.

58. Abdulloev U. X. Formirovanie i razvitie reshtonalnogo stroitel'nogo

klastera (na materialax sentralnogo Tadjikistana). Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Texnologicheskogo universiteta Tadjikistana. Dushanbe – 2019. S 27.

59. Kerembaev A.T. OTChET po rezultatam marketingovogo issledovaniya PROIZVODSTVO STROITELNYX MATERIALOV I PROCHEY NE METALLICHESKOY MINERALNOY PRODUKSII. PROIZVODSTVO sEMENTA, IZVESTI I STROITELNOGO GIPSA. Podgotovlen v ramkax provedeniya marketingovykh issledovaniy v prioritetnykh sektorax Gosudarstvennoy programmy podderjki i razvitiya biznesa “Dorojnaya karta biznesa – 2025”. Nur-Sultan 2020.

60. Sostav promyshlennosti stroitelnykh materialov, yee mesto v stroitelnom komplekse i natsionalnoy ekonomike. Statya. URL: <http://investobserver.info/sostav-promyshlennosti-stroitelnyx-materialov-ee-mesto-v-stroitelnom-komplekse-i-nacionalnoj-ekonomike/> (data obraçeniya: 03.04.2016).

61. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. Toshkent, 2015-2021-yillar.

62. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining yillik hisobotlari

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

63. <http://www.prezident.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.

64. www.stat.uz– O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

65. www.norma.uz–O‘zbekiston Respublikasi huquqiy me’yoriy xujjatlar to‘plami

66. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/06/15/building-materials/>

67. <https://ru.essays.club/Gumanitarnye-nauki/Ekologiya/Importozameщenie-stroymaterialov-484632.html>

68. [.https://xreferat.com/53/3769-1-ocenka-rynka-stroitel-nyh-uslug.html](https://xreferat.com/53/3769-1-ocenka-rynka-stroitel-nyh-uslug.html)

69. https://tafsilar.info/jekonomika/Uzbekistan-rasshiraet-proizdvotsvo_v_stroymaterialov/

70. <http://www.uzbekistan.org.ua/ru/prapor/55-uncategorised/novosti/economica-news2/1744-import-zamenyayut-otechestvennym.html>

71. <https://ru.essays.club/Gumanitarnie-nauki/Ekologiya/Importozamenieshie-stroymaterialov-484632.html>

72. <https://businessman.ru/new-innovatsionnoe-texnologie-v-stroitelstve-ili-stroitelnyx-materialax-znachenie-vnedreniya-innovatsionnyx-texnologiy-v-stroitelstve.html>

73. <https://zen.yandex.ru/media/id/5ef429bb259d855256495dce/noveishie-texnologii-v-proizvodstve-stroitelnyx-materialov-5fcbf999702d845a13990b22>

74. <https://viafuture.ru/katalog-idej/novie-texnologii-v-stroitelstve>

75. <https://uzreport.news/economy/2030-yilgacha-o-zbekistonda-qurilish-materiallari-sanoatini-rivojlantirish-strategiyasi-lo>

76. <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/green-building-materials-market>